

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2025-yil 12-noyabr chorshanba №45(9578)


O'qituvchi nimani o'ylaydi?

Har kuni bepul to'garak o'taman. O'quvchilarim ham intiqib kutishadi. Ammo...

To'garak jarayonidan rasmlar, o'quvchilar ro'yxatini topshirish – mantiqsizlik, menimcha. Ta'lim va tarbiyaning sifati rasmbozlik, qog'ozbozlik bilan o'lchanmasligi kerak. Yil bo'yi tadbirlar tashkil etsang, to'garaklar o'tsang-u, qaysidir buyruqda familiyang bo'lmasa, hamma harakatlaring yo'qqa chiqadi.

Hujjatbozlikdagi kamchiliklarni esa tezda yakunlab topshirish zarur: siz qog'ozlar tayyorlash bilan band bo'lgan paytingizda o'quvchilaringiz sovuqqina xonalarda o'tirib turishadi.

Ziyoda MAMAJONOVA



Yusuf ABSOATOV:


SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR – DAVR TALABI

4-bet

Scopus

5-bet

OTM strategik
rivojlanishida
Scopusning roli



6-bet

Fizika va
zamonaviy axborot
texnologiyalari



12-bet

Kompyuter
o'rgatadi, ammo
tarbiyalay olmaydi

Pedagogika insonni inson qiladigan fan

Mazkur maqola bugungi O'zbekiston ilmiy hayotida juda dolzarb masalaga – fanlararo bag'rikenglik va ilmiy xolislik madaniyatiga e'tibor qaratgani bilan ahamiyatlidir. Muallif chuqur fikr yuritgan, ayniqsa, ilm-fanning haqiqiy mohiyati hamkorlikda, integratsiyada namoyon bo'lishini asosli tarzda yoritgan. "Olimning bag'rikenglik qiyofasi" degan ibora orqali ilmiy etikaning mohiyatini juda nozik tarzda ochgan. Bu fikr shuni anglatadiki, haqiqiy olim o'z fani chegarasidan chiqib, boshqa yo'nalishlarning yutuqlarini ham qadrlay oladi. Chunki ilmning taraqqiyoti bir yo'nalish bilan cheklanmaydi. Har bir fan boshqasining yutug'iga tayanadi. Bu yondashuv integrativ tafakkur madaniyatini targ'ib etadi. Muallif maqolada ilmiy sohada keng tarqalgan fanlararo ustunlik hissi va subyektiv yondashuvlarni tanqid qiladi. Uning fikricha, haqiqiy olim o'z yo'nalishini boshqa sohalaridan ustun qo'yish orqali emas, balki ilmiy bag'rikenglik, integratsiya va hamkorlik orqali o'zining ilmiy salohiyatini namoyon etadi. Bu g'oya hozirgi global ilmiy paradigmalarga – interdistsiplinar, transdistsiplinar va integrativ ilmiy yondashuvlarga to'la mos tushadi.

Zamonaviy ilm-fan rivojlanishida "yagona yo'nalishli fikrlash" (monodistsiplinarlik) eskirgan model sifatida qaralmoqda. Shunday ekan, maqoladagi "ilmning haqiqiy qiymati fanlararo uyg'unlikda namoyon bo'ladi" degan fikr, epistemologik yangilanish ruhini aks ettiradi. Maqoladagi eng asosiy ilmiy tezis – pedagogika insonni inson qiladigan fan degan fikrdir. Bu qarash chuqur falsafiy asosga ega, chunki pedagogika nafaqat ta'lim jarayonini, balki insonning ma'naviy, aqliy va ijtimoiy shakllanishini o'rganadi.

Muallifning "pedagogika – insonning insonga aylanish jarayonini o'rganadi" degan iborasi gumanistik pedagogika va antroposentrik ta'lim nazariyasi tamoyillariga mos keladi. Ushbu yondashuvda ta'lim shunchaki bilim uzatish emas, balki insonning ichki olami, axloqiy dunyoqarashi va intellektual salohiyatini uyg'otish jarayoni sifatida talqin etiladi. Bu jihatdan maqola pedagogikani "ikkinchi darajali soha" sifatida qarovchilarga qat'iy ilmiy e'tiroz bildiradi. Bu pozitsiya O'zbekiston ta'lim falsafasining rivojlanishida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Muallif ta'kidlaganidek, fan va ta'lim o'rtasidagi munosabat dialektik bog'liqlik asosida shakllanadi: fan yangilansa – ta'lim yangilanadi, ta'lim rivojlanmasa – fan amaliy qimmatini yo'qotadi. Bu fikr ilmiy bilish jarayoni va bilimni uzatish jarayonining bir butun tizim ekanini ilmiy asosda isbotlaydi.

Agar ta'lim tizimi fanga tayansa, fan natijalari esa ta'lim orqali jamiyatga kirib borsa, ilm-fan uzluksiz harakatda bo'ladi. Maqolada pedagogika fanining murakkabligi ilmiy nuqtayi nazardan puxta asoslangan. Muallif tabiiy fanlarda mavjud bo'lgan qat'iy qonuniyatlarni pedagogikada to'la amal qilmasligini, chunki pedagogikaning obyekti – inson ekanini ilmiy jihatdan tahlil etadi. Bu fikr nazoratsiz o'zgaruvchanlik emas, balki inson tabiatiga mos moslashuvchanlikni bildiradi. Pedagogika fani har bir tarixiy davr, madaniy muhit va axborot muhitiga moslashgan holda o'z metod va paradigmasini yangilab boradi. Bu jihatdan maqola pedagogik innovatsiya va ilmiy yangilanishning zarurligini ta'kidlovchi nazariy dalildir. Maqolada ta'limdagi barcha yutuqlar – yangi dasturlar, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar – pedagogik tadqiqotlarning mahsuli ekanligi ilmiy isbot bilan bayon etilgan. Bu g'oya ilmiy asoslangan ta'lim siyosati (evidence-based education policy) tamoyiliga to'la mos keladi.

Xususan, muallif xorijiy tajribalarni (Finlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur) tahlil qilish orqali pedagogik izlanishlarning davlat siyosati darajasidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Bu esa maqolaga komparativ pedagogika ruhini olib kirgan.

Maqoladagi "pedagogik tadqiqotlar ta'lim uchun kompasdir" degan jumla ilmiy jihatdan metaforik kuchga ega bo'lib, pedagogika fanining strategik yo'naltiruvchi kuch ekanini anglatadi. Mazkur maqolaga ilmiy munosabat shundan iboratki, unda pedagogika fanining zamonaviy mohiyati, dinamikasi va ijtimoiy zarurati keng qamrovli tahlil qilingan. U pedagogikani "ikkinchi darajali" deb emas, balki ilm-fanning asosiy uzviy elementi sifatida qarash zarurligini ilmiy asosda isbotlaydi.

Maqola ilmiy xolislik, bag'rikenglik va fanlararo uyg'unlikni targ'ib etuvchi konseptual ruhga ega bo'lib, O'zbekiston ilm-fanida pedagogika falsafasining yangi bosqichini shakllantiruvchi muhim nazariy manba sifatida qadrlanishi lozimdir.

Maqsuda HOJIYEVA,
UrDU professori,
pedagogika fanlari doktori

Marifat

ga

aks sado



Pedagogika mustahkam bo'lgan jamiyatda har bir fan, har bir kasb, har bir islohot o'z o'rnini topadi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori Umid Xo'jamqulovning "Ma'rifat" gazetasining 2025-yil 22-oktabrdagi 42-sonida e'lon qilingan "Pedagogika: fan taqdiri halokat yoqasida (fan va ta'lim dialektikasi haqida mulohazalar)" nomli maqolasida pedagogika fanining zamonaviy holati, sohada mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari chuqur tahlil qilingan. Muallif ta'kidlaganidek, fan va ta'lim o'rtasidagi dialektik bog'liqlik jamiyatning intellektual taraqqiyotini belgilovchi bosh mezondir. Chunki har qanday ilmiy yutuqning hayotiy samarasini ta'lim jarayoni orqali baholash mumkin. Bugungi globallashuv, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt va "yashil rivojlanish" davrida pedagogik tadqiqotlar faqat nazariy izlanish emas, balki milliy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan ilmiy zarurat sifatida maydonga chiqmoqda. Muallif maqolada bu fikrni chuqur tahlil qilib, aniq dalillar orqali isbotlagan.

Darhaqiqat, pedagogik tadqiqotlar bugungi ta'limni global

o'zgarishlarga moslashtirishda bosh yo'nalish vazifasini bajaredi. U o'qituvchini yo'naltiradi, o'quvchi ehtiyojlarini anglab, yangi o'qitish texnologiyalarini ilmiy asosda ishlab chiqadi. Shuning uchun, pedagogik tadqiqotlarsiz ta'limni modernizatsiya qilish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish yoki PISA, TIMSS singari xalqaro baholash dasturlari talablariga mos natijalarni kutish mumkin emas.

Hozirgi zamon ta'limida muammolarni yuzaki islohotlar emas, balki ilmiy tahlil va sinov-tajriba asosida hal qilish zarur. Maqolada ta'kidlanganidek, har bir fan o'z taraqqiyoti uchun pedagogikaga muhtoj, bu fikr o'qituvchining rolini "axborot beruvchi"dan "yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi fasilitator" darajasiga ko'taradi. Shu orqali ta'lim jarayonida bilimdan ko'ra fikrlash, muammoni hal qilish, o'zaro hamkorlik va tahlil qilish kabi XXI asr kompetensiyalari shakllanadi.

Pedagogik tadqiqotlarning yana bir muhim jihati xalqaro tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish imkonini berishidir. Singapur, Finlandi-

ya va Koreya Respublikasi singari ilg'or davlatlar ta'limdagi yutuqlariga bevosita ilmiy izlanishlar, metodika va baholash tizimini doimiy tahlil qilish orqali erishgan. Mazkur tajribalarni o'zlashtirish O'zbekiston ta'lim tizimini global raqobat maydoniga olib chiqadi.

Aytish mumkinki, pedagogika fani millatning intellektual xavfsizligi va ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi strategik tizimdir. Uning kuchi insonni faqat bilim bilan emas, balki tafakkur madaniyati, ijtimoiy mas'uliyat va ijodiy fikrlash qobiliyati bilan qurollantirishdadir. Pedagogika mustahkam bo'lgan jamiyatda har bir fan, har bir kasb, har bir islohot o'z o'rnini topadi. Uni rivojlantirish inson resursini, milliy tafakkurni va ta'lim madaniyatini ilmiy asosda qayta tiklash demakdir. Chunki taraqqiyot faqat texnologiyalar bilan emas, balki tafakkur orqali yuz beradi. Shu bois, pedagogik tadqiqotlarga e'tibor nafaqat ilmiy zarurat, balki "ma'naviy burch" hamdir.

Furqat RAJABOV,
CHDPU Turizm
fakulteti dekani,
pedagogika fanlari doktori,
dotsent

"Domla, maqola uncha yaxshi emasmikan?"

Professor Umid Xo'jamqulovning "Pedagogika: fan taqdiri halokat yoqasida" maqolasini o'qib, to'g'risini aytganda, noaniq hissiyotlarni tuydim. Maqolada dolzarb va barcha fanga birdek taalluqli bo'lgan masalalar o'rta tashlangan. Menga ta'sir qilgan bir jihatga to'xtalmoqchiman. Bu masala maqolada unchalik keng qarab chiqilmagan bo'lsa-da, aspirantlik paytimda ustozim bilan oramizda bo'lib o'tgan bir vaziyatni esimga tushirdi. O'shanda ilk ilmiy maqolamni yozgan edim. Kafedradagi ko'pni ko'rgan "oqsoqollar" maqolani domlam va o'z nomimdan nashrga berishni tavsiya qilishdi. Shundan so'ng, nashrga berishdan oldin uni ustozimga "Bir ko'rib bering", deb iltimos qildim. Ustoz maqolani o'qib ko'rib ozroq o'ylanib turdi va otib yubordi. Nima qilishni bilmay qoldim. Keyin jur'at to'pib, "Domla, maqola uncha yaxshi emasmikan?" dedim. Shundan so'ng domladan to hozirgi kungacha esimdan chiqmaydigan bir fikrni eshitganman. U kishi maqolaga o'zining ism-familiyasini qo'yganimni qattiq qoraladi va "agar biror kishi uni birgalikda yozmagan bo'lsa, yoki maslahat bermagan bo'lsa, qandaydir xulosa yoki mazmuniga oid matnlarga hissasini qo'shmagan bo'lsa, hech kimni hammuallif deb yozmaslikni", bafurja tushuntirgan edi. Maqolada shunga oid o'rinlar bo'rttirilmagan bo'lsa-da, hozirgi paytda hammualliflik haddan ortiq ko'payib ketgan, nazarimda. Bu ilm-fandagi monopoliyalashuvning sabablaridan biridir. Hozir sog'ligim

sabab ilm-fandan chetroqdaman. Ammo 5-6 yil ilgari mavjud muammolar, hozir to'liq yechilgan deb o'ylamayman. Shulardan biri "ustoz-tadqiqotchi" orasidagi ba'zi ochiq aytilmaydigan, ammo qoidaga aylanib ulgurgan va hozirgi fanimiz rivojiga to'siq bo'layotgan masalalardir. Maqolada ana shu yo'nalish chuqur qarab chiqilmagan bo'lsa-da, ba'zi chuqur o'ylab ko'rishni talab qiladigan o'rinlar ham yo'q emas. Binobarin, muallif ta'kidlayotganidek, "har qanday yangicha g'oya, kashfiyot yoki noyob ishlanma ayrim "qirollar" nomi bilan bog'lanib, ilmiy jamoatchilikka taqdim etiladi. Natijada, haqiqiy mehnat qilgan tadqiqotchi e'tiborsiz qoladi, fanning rivoji esa sun'iy to'siqlarga duch keladi... Bir shaxs qanchalik kuchli bo'lmasin, butun sohani yagona o'zgarmas hukmronlik bilan boshqarib tura olmaydi... Shu haqiqatni anglamay turib, ilm maydonini monopoliyaga aylantirish fanning yo'lini to'sishdan boshqa narsa emas. Kosa tagidagi nimkosani kim anglagan bo'lsa ularga shon-sharaflar. Hozirgi paytda mamlakatimizda barcha sohalarida monopollashtirish illatiga qarshi kurash avj olgan paytda ilm-fan sohasi bundan chetda turmasligi kerak. Chunki monopollashtirishdan korrupsiyaga o'tish bir qadam. Haqiqiy ilm-fan bu kasalliklardan chetda turishi lozim.

Abduhalim HUKUMOV,
falsafa fanlari nomzodi,
dotsent



Jarayonlarning barchasi “Pedagogika” fani qonuniyatlari va tamoyillari orqali amalga oshirilmayaptimi?



Maqolani o‘qib juda ta’sirlandim. Muallif jonkuyarlik bilan ta’kidlaganidek, insoniyat paydo bo‘lgandan buyon odamni shaxs sifatida shakllantirib, unga ma’naviy, ma’rifiy qiyofa bag‘ishlab kelayotgan fanga nisbatan past nazar bilan qarash, uning imkoniyatlari va ta’limiy-tarbiyaviy kuchini inkor etishdek nomaqbul fikr-mulohazalar har jihatdan, na makon, na zamon talab va ehtiyojlariga to‘g‘ri keladigan safsatadan boshqa narsa emas.

Agar pedagogika fan sifatida inkor etilsa, unda jahon fani rivoji qayerdan paydo bo‘ldi? Xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatiga ta’lim va tarbiya orqali erishilmadimi? Yaratilgan nazariyalar, kashfiyotlar, ularni amaliyotda qo‘llashdan eri-

shilgan beqiyos ilmiy-tadqiqot natijalari o‘z-o‘zidan paydo bo‘ldimi? Birinchi sinfga kelgan o‘quvchini ko‘z oldingizga keltiring-da, undan raqobatbardosh maktab bitiruvchisini kim tayyorlayapti? Ana shu jarayonlarning barchasi “Pedagogika” fani qonuniyatlari va tamoyillari orqali amalga oshirilmayaptimi? Yangi O‘zbekiston sharoitida barkamol avlodni tarbiyalash davrning zaruriy va o‘ta dolzarb muammasi bo‘lib turganda “Pedagogika” fanini inkor etish yoki unga past nazar bilan qarash “attorning qutisidan topilmaydigan anqoning urug‘i”ga o‘xshaydigan bir narsa emasmi?

To‘g‘ri, “Pedagogika” fani qonuniyatlari va tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda kamchilik va nuqsonlar mavjudligini

inkor etib bo‘lmaydi. Bu boshqa masala. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan ko‘p ming sonli pedagoglar oldida turgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda, ya’ni ta’lim va tarbiya samaradorligiga erishishda nuqsonlar yetarli. Buning uchun “Pedagogika” fani aybdor emas. Aybdorlar esa shu fan bilan bevosita shug‘ullanuvchi olimlar va amaliyotchi pedagoglardir. Har bir narsaga obyektiv baho berish va uni o‘z nomi bilan atash adolatdan bo‘lur edi.

Muallif e’tirof etganidek, “Pedagogika – murakkab fan. Chunki obyekt inson va uning intellektual hamda ma’naviy kamolotini ta’minlash jarayonidir. Inson esa tabiatning eng murakkab, eng serqirra mavjudoti sifatida hamisha o‘zgarish va taraqqiyotda yashaydi. Shuning uchun ham insonni tarbiyalash, unga ta’lim berish, har tomonlama rivojlantirish jarayonini aniq qonun-qoidalarga sig‘dirib qo‘yish mushkul va hatto mumkin emas. Inson bir vaqtning o‘zida ham ruhiy, ham ma’naviy, ham ijtimoiy jihatlarni o‘zida mujassam etgan mavjudotdir. Pedagogikaning murakkabligi esa aynan shu jihat – inson qiyofasining serqirraligi tufaylidir”.

Rahmatilla MUSURMONOV,
pedagogika fanlari doktori

Ilm yaratuvchi bo‘lsa, pedagogika uni amalga oshiruvchi

Umid Xo‘jamqulovning ushbu maqolasi zamonaviy pedagogik tafakkurning eng muhim nuqtalariga bag‘ishlangan ilmiy va falsafiy mulohazalarga boy. Muallif pedagogikaning jamiyat hayotidagi o‘rni, uning inson kamoloti va millat taraqqiyotidagi asosiy kuch sifatidagi ahamiyatini chuqur tahlil qiladi. U pedagogikani “insonni inson qiladigan fan” sifatida talqin etar ekan, bu orqali uni faqat ta’lim sohasi emas, balki butun insoniyat taraqqiyotining ma’naviy va intellektual poydevori sifatida namoyon qiladi.

Maqolada fan va ta’lim o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik teran yoritilgan. Muallif ta’kidlaganidek, fan bilimni yaratadi, pedagogika esa uni jamiyatga yetkazadi. Bu fikr ta’lim tizimi va ilmiy tadqiqotlar bir-birini to‘ldiradigan yagona jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Demak, har qanday fanning hayotdagi samarasi uning o‘qitish tizimi bilan chambarchas bog‘liq. Ilm yaratuvchi bo‘lsa, pedagogika uni amalga oshiruvchi; ana shu uyg‘unlik jamiyatda barqaror rivojlanish va ma’naviy o‘rishni ta’minlaydi.

Muallif pedagogikaning murakkab va serqirra tabiatiga ham alohida to‘xtalib o‘tadi. Unga ko‘ra, inson pedagogika tadqiqotining markazida turgan eng murakkab mavjudot bo‘lib, uning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy qiyofasi doimiy ravishda o‘zgarib boradi. Shu bois pedagogikada mutlaq qonun yoki doimiy haqiqat bo‘lishi mumkin emas; u doimo yangi avlod ehtiyojlariga, zamon talablariga va axborot muhitiga moslashishi lozim. Bu nuqtayi nazardan pedagogika doimiy yangilanish, izlanish va ilmiy kashfiyotlar bilan yashaydigan fan sifatida ko‘riladi.

Maqolada muallif zamonaviy ta’lim paradigma-lari: kompetensiyaviy, integrativ(STEM), raqamli, inklyuziv va shaxsiylashtirilgan yondashuvlar orqali ta’limning yangi bosqichga ko‘tarilishi zarurligini ta’kidlaydi. U ta’lim jarayonini faqat nazariy bilim

berish emas, balki hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish vositasi sifatida ko‘radi. Bu orqali ta’limning inson hayotiga tatbiqiy qiymati, uning jamiyat rivojiga ta’siri yanada kuchayishi mumkinligi asoslanadi.

Muallifning eng ta’sirli qarashlaridan biri ilm maydonida monopoliya va yakka fikr hukmronligiga qarshi qat’iy pozitsiyasidir. U haqiqiy ilm faqat ochiqlik, ko‘p fikrlilik va xolis mulohaza muhitida rivojlanishini ta’kidlaydi. Ilm bir shaxsga emas, butun jamoaga tegishli; fanning kuchi individual hukmronlikda emas, balki hamkorlikda, bahs va muloqotda namoyon bo‘ladi. Shu orqali muallif fan madaniyatida adolat, hamjihatlik va ma’naviy poklik kabi qadriyatlarni ilgari suradi.

Maqolaning yana bir muhim jihati muallifning amaliy yechimlarga qaratilgan yondashuvidir. U ta’lim tizimini takomillashtirishda pedagogik tadqiqotlarning asosiy rol o‘ynashini ilmiy asosda ko‘rsatib, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, milliy metodik platformalar yaratish va o‘quv jarayonlarini xalqaro mezonlarga moslashtirish kabi takliflarni ilgari suradi. Bu esa maqolani faqat nazariy mulohaza emas, balki amaliy dastur ahamiyatiga ega ilmiy yo‘nalish sifatida qimmatli qiladi.

Umuman, maqola pedagogika fanining haqiqiy mohiyatini, uning jamiyatdagi o‘rni va kelajakda tutadigan ahamiyatini teran yoritib bergan. Unda ilm va ta’limning uyg‘unligi, insonni kamolotga yetaklaydigan ma’naviy kuch sifatida pedagogikaning chuqur qiymati ochib berilgan. Bu tadqiqot faqatgina bir ilmiy pozitsiya emas, balki milliy pedagogik tafakkurni yangi bosqichga olib chiquvchi intellektual dastur sifatida ahamiyat kasb etadi.

Muqaddas RAHMONOVA,
pedagogika fanlari doktori,
professor

Voqelikni ilmiy anglash jarayoni ong bilan bog‘liq jarayon ekanini hisobga olsak, uning naqadar murakkab jarayon ekanligi anglashiladi. Bu jarayon insonning yoshlik yillarida kechishi muammoning jiddiyligini yanada oshiradi. Yosh avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanligi ham masalaning yana bir muhim jihatidir. Sanab o‘tilgan omillar ro‘yxati yana davom ettirilishi mumkin. Lekin har bir sabab o‘z mohiyati bilan pedagogika fanining barcha zamonlarda va barcha mamlakatlarda mavqeyi baland ekanligini tavsiflashga xizmat qiladi.

Ziyoli qatlam vakillari hukmiga havola etilgan “Pedagogika: fan taqdiri halokat yoqasida” maqolasi ham aynan shu muammo va uning yechimini izlashga qaratilganli bilan ahamiyatli. Muallifning pedagogikaning fan sifatidagi mavqeyini tushuntirishga ehtiyoj yuzaga kelgani va bu afsuslanarli holat ekanligini ta’kidlashi ta’lim sohasi

Ilmiy-tadqiqotlar mavzusi tanlanishi emas, soha talablariga ko‘ra belgilanishi joiz

fidoyi vakillarini hushyor torttirishi tabiiy.

Maqola pedagogik tadqiqotlar ko‘lami, ularning mahsuldorligi haqida bildirilgan fikrlar yangilana-yotgan jamiyat rivojida nechog‘lik muhimligining asoslanishi bilan ham katta ahamiyat kasb etgan. Pedagogikaning ko‘p qirrali (shu o‘rinda bir necha o‘nlab jihatlar mavjudligi ko‘zda tutilayotganini takidlash lozim. Fikr bizniki – **U.Sh.**) fan ekanligi, bunda ko‘lamni hisoblashning o‘zi noo‘rin ekanligi ayni haqiqat. Muallif ko‘targan muammo bir qarashda faqat pedagogika yoki metodikadan dars berayotgan o‘qituvchiga tegishlidek taassurot qoldiradi, ammo zamonaviy ta’limda mavjud muammolarga(2022-yilgi PISA natijalari-ga ko‘ra, mamlakatimiz o‘quvchilari matematik savodxonlik bo‘yicha 81 davlat orasida 364 ball bilan 72-o‘rinni egallashi) nazar tashlasak, mazkur masala qanday fan bo‘lmasin, ta’lim berayotgan har bir soha vakillariga birdek tegishli.

Shu o‘rinda ba’zi mulohazali fikrlarni ham bayon etib o‘tishni lozim deb topdim. Oliy ta’limda O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi fanidan ta’lim berishimni hisobga oladigan bo‘lsak, mazkur maqolada ko‘tarilgan bosh muammo tilga olinmagan biror-bir mashg‘ulotni esga ola olmayman. Har bir mashg‘ulot ta’limda pedagogikaning, xususan metodikaning o‘rni va roli muhim ekanligini ta’kidlashga bag‘ishlanadi. Shu o‘rinda pedagogikada zamonaviy ta’lim bilan bog‘liq shakllangan bir noo‘rin qarashga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Ta’limda kutilgan natija bermagan yoki umuman natija bermagan har qanday usul an’anaviy usul deya baholanmoqda. Tarixga nazar solsak, biz bilgan adabiyot sohasida Tog‘ay Murod, Xurshid Davron, Sirojiddin Sayyid kabi shoir va yozuvchilar an’anaviy usulda ta’lim va tarbiya topgan. Aslida pedagogikada zamonaviy pedagogik texnologiya, interaktiv usullar deya ta’riflanayotgan tushunchalarga an’anaviy usullar poydevor vazifasini o‘tagan. Mavjud pedagogika va metodikaga doir fan dasturlarini kuzatib, bo‘ljak o‘qituvchi an’anaviy usul va metodlarni o‘zlashtirmay turib yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rganishiga guvoh bo‘lamiz. Darsni tashkil etish haqida umuman tasavvuri bo‘lmagan talabaga birdaniga yangi pedagogik texnologiyalar bo‘yicha bilim berilishi ham pedagogika fani tanazzulini yuzaga keltiruvchi omillardan biri deb hisoblayman. Mazkur fikrlar tasdig‘i biz tahlil etayotgan maqolada “Monopoliyaga qarshi fan madaniyatini shakllantirish”ga doir mulohazalarda namoyon bo‘lgan. Umumta’lim maktablari uchun dastur va darslik yaratish masalasiga keng nazar soladigan bo‘lsak, muammoga jiddiy e’tibor qaratish lozimligi anglashiladi.

Maqolada pedagogik tadqiqotlarning mavzusini tanlashdagi muammo va uning yechimiga doir fikrlar ham mustaqil izlanuvchilar hamda ularning rahbarlariga tegishli juda muhim masaladir. Tadqiqot mavzusini belgilashda(shu o‘rinda *belgilash* fe’liga diqqatingizni qaratmoqchiman: ilmiy-tadqiqotlar mavzusi tanlanishi emas, soha talablariga ko‘ra belgilanishi joiz. – **U.Sh.**) qat’iy “filtr”larning ishlab chiqilishi pedagogikada tadqiqot ishlarining salmog‘ini oshiruvchi eng zarur omillardan biridir. Dolzarblik asosi, adabiyot kartasi, ilmiy gipoteza, amaliyotga ko‘chirish rejasi kabi bir qator mezonlarning tatbiq qilinishi izlanishlar samaradorligi istiqbollari haqida keng tasavvur hosil qiladi. Maqoladagi mezonlarni ma’muriy to‘siq sifatida emas, balki sifat kafolati: jamoatchilik nazorati, takrorlanish xavfini pasaytirish, natijalarni amaliyotga ko‘chirish uchun tayyor infratuzilma yaratish sifatida ko‘rish mumkinligi ham muammo yechimiga xolis yondashilganligining isbotidir.

Umida SHERMATOVA,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD),
dotsent



Taklif

SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR —
DAVR TALABI

Bugun respublikamiz aholisining, ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatini muntazam monitoring qilib boradigan tizimga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Yoshlar har doim jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi, mamlakatning kelajagini belgilab beradigan, istiqbolda hal qiluvchi rol o'ynaydigan faol qatlami bo'lib kelgan.

Ularning qiziqish va intilishlari, maqsadlari, orzulari, jamiyat va davlat darajasida yuz berayotgan voqea-hodisalarga munosabati, va eng muhimi, daxldorlik darajasining qanday bo'lishi shu mamlakatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omillardan biridir. Umuman, davlat va jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, strategik maqsadlarga aniqlik kiritish, muhim qarorlar qabul qilishda ham aynan yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, kayfiyati, ehtiyojlaridan kelib chiqish an'anasi mavjud.


Shuning uchun ham davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari aniq belgilab berilgan. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, hayoti va sog'lig'ini saqlash, ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va

tirish kabi ustuvor yo'nalishlarga qaratilgan. Yoshlar o'rtasida ommaviy sotsiologik tadqiqot ishlarini amalga oshirish, olingan xulosalarni ilmiy tahlil qilish, doimiy monitoring va tizimli baholash ishlarini amalga oshirishda ushbu institutga muqobil raqobatlasha oladigan, zarur hollarda barcha markazlar tomonidan amalga oshirilgan tahlil natijalari va xulosalarni umumlashtirib, umumdavlat miqyosida muhim strategik yo'nalishlarni belgilab bera olishga qodir davlat yoki nodavlat hamda mustaqil analitik tadqiqot markaz(institut)lari mavjud emas.

Shu ma'noda bugungi globallashuv va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar fonida yoshlarning orzu-istaklari, intilishlari, muammolari, ehtiyojlarini muntazam ravishda o'rganadigan va mukammal sotsiologik tadqiqotlar o'tkazadigan hamda olingan xulosalar asosida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga baho bera oladigan markazlar faoliyati yo'lga qo'yilishi lozim.

Taklifimiz shundan iboratki, ushbu markaz davlat tomonidan va maqsadli grantlar bilan moliyalashtiriladigan, malakali mutaxassislarni o'zida jamlagan, har bir hududda mavjud oliy ta'lim muassasalari bazasida o'z bo'limlariga ega bo'lgan, keng miqyosda va ommaviy ravishda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishga ixtisoslashgan, olingan natijalarni muntazam tahlil qilib boradigan, mavjud xavf-xatarlar, ziddiyatlar, qarama-qarshiliklarni, aholi va yoshlarning kelgusidagi ijtimoiy kayfiyatini prognozlashtiradigan, barqarorlik shartlari va kafolatlarini belgilab berishga xizmat qiladigan imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim.

Ushbu markazning taklif etilayotgan funksional sxemasi va faoliyat yo'nalishlarini quyidagi shaklda ifoda etishimiz mumkin.



umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash, ularni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'rvonlik va shafqatsizlik g'oyalardan himoya qilish singari muhim vazifalar belgilangan.

Albatta, ushbu ustuvor vazifalar bosiqchma-bosiqch amalga oshirilib kelinmoqda. Ta'kidlash kerakki, bu jarayonda yoshlarning faoliyatiga baho berish, tahlil qilish, monitoring o'tkazish, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabati, islohotlarga daxldorlik darajasi kabi muhim jihatlarga aniqlik kiritish talab etiladi. Ayni paytda mamlakatimizda aynan shu vazifalarni amalga oshiradigan, yoshlarga oid davlat siyosatining muhim vektorlarini aniqlab olishga qaratilgan ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va tahliliy materiallar tayyorlash, monitoring qilish, olingan xulosalar asosida tegishli chora-tadbirlar belgilash yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqadigan ilmiy-ijtimoiy markazlar faoliyatiga zarurat tug'ilgan.

Albatta, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan bu yo'nalishda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, institutning yosh kadrlarni yetkazib berish, tinglovchilarni o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasidagi ishlari diqqatga sazovor. Gap shundaki, mazkur institut faoliyati asosan yoshlar orasida davlat xizmatchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish, rahbar kadrlar zaxirasini shakllan-

Ushbu markaz zamonaviy AKT imkoniyatlaridan kelib chiqib, to'liq raqamlashtirilgan formatdagi platforma orqali boshqariladi. Bunda markaziy Tahlil(analitik) guruhi muhim muammolar va masalalar yuzasidan ijtimoiy so'rovnoma o'tkazish shakli va savollarni tuzish, respondentlar tarkibiga aniqlik kiritish bilan shug'ullanadi.

Platformada aholi va yoshlarga oid barcha demografik va statistik ma'lumotlar hududlar kesimida shakllantiriladi, savolnomalar bazasi joylashtiriladi. Bu jarayonda turli tashabbuskor guruhlar(jumladan, yoshlar tashkilotlari, OAV vakillari, bloggerlar, jamoatchilik) tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalar asosida so'rovnoma mazmun-mohiyatiga qo'shimcha o'zgartirishlar kiritib boriladi.

O'z navbatida barcha hududlarda o'tkazilgan ommaviy o'rganishlar natijalari markaziy Tahlil (analitik) guruhi, "Aql markazi"ga qayta yuboriladi. Olingan natijalar tahlil qilinib, tizimlashtiriladi, xulosalar tayyorlanadi va zarur amaliy choralar belgilash bo'yicha tegishli vakolatli tashkilotlarga taklif kiritiladi. Ushbu taklifni amaliyotga tatbiq etish oson va oddiy jarayon emas. Ammo bugungi kunda xalqaro miqyosdagi ijtimoiy-siyosiy voqealiklar, turli geosiyosiy ziddiyatlar fonida mavjud ehtiyojlar va ijtimoiy zaruratlar kelib chiqib bu taklifning qo'llab-quvvatlanishiga va shu asosda tegishli choralar belgilanishiga ishonchimiz komil.

Yusuf ABSOATOV,
TDTU Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha birinchi prorektor,
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Chet tili muhiti

Uzoq tarixga ega nemis tilining dunyo tamaddunida ahamiyati katta. Jumladan, u Yevropa Ittifoqining asosiy ishchi tili maqomida bo'lib, unga fan va texnologiyalar tili sifatida qaraladi. Bu til Germaniyadan tashqari Avstriya va Shveysariyaning davlat tili, Lyuksemburg, Lixtenshteyn, janubi-sharqiy Fransiya, Shimoliy Italiya, Chexiya va Vengriya kabi mamlakatlarda yashovchi xalqlarning umumiy tilidir. Bundan tashqari, nemis tili jahon madaniyati va adabiyoti tilidir. Bugungi kunda dunyo bo'ylab nashr etilgan har o'ninchi kitob nemis tilida. Bu til Gyote, Mann, Motsart, Betxoven, Mendelson, Dyurer va boshqa ko'plab taniqli shaxslarning ona tilidir. Uni bilish mamlakat tarixini o'rganish, nemis mualliflari kitoblarini o'qish va filmlarini asl nusxada ko'rish imkonini beradi.

Nemis tili — jahon

Jahon bo'yicha 130 millionga yaqin kishi nemis tilini ona tili sifatida biladi. Bu til mamlakatimizda eng ommalashgan xorijiy tillar orasida ikkinchi o'rinda turadi. Bugungi kunda yurtimizda 300 mingga yaqin kishi olmon tilini o'rganmoqda, 3 mingdan ortiq o'qituvchi ushbu tildan dars beradi. Keyingi yillarda respublikamizda nemis tilini o'rganish bo'yicha turli loyiha va ilmiy konferensiyalar o'tkazilmoqda. Xususan, Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tomonidan nemis tilini o'rgatuvchi media-kontent, masofaviy ta'lim platformasi <http://de.lpa.gov.uz/> ishga tushirildi. Mazkur portalning maqsadi respublika bo'yicha nemis tili ta'limining yagona axborot-metodik ta'minotini yaratish hamda uni tashkil etishning masofaviy shakllarini ishlab chiqishdan iborat.

An'anaga aylangan tadbirlardan yana biri O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida "Nemis tili o'qituvchilarining XVII anjuman" o'tkazib kelinishidir. Bu tadbirda mamlakatimizning barcha hududlaridan kelgan 250 dan ziyod nemis tili o'qituvchilari malaka oshirish va tajriba almashish maqsadida uchrashishadi. Anjuman Germaniya Federativ Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi tomonidan Gyote instituti, Shveysariya elchixonasi, O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida faoliyat yurituvchi o'qituvchilar, shuningdek, Germaniyaning xorijdagi maktablar bosh boshqarmasi(ZfA) va O'zbekiston nemis tili o'qituvchilari uyushmasi(DLV) hamkorligida tashkil etiladi. Ikki kunlik anjuman davomida turli mavzuda seminar va mahorat darslari o'tkaziladi. Seminarda germaniyalik va o'zbekistonlik mutaxassislarning nemis tilini o'rgatish va o'rganish bo'yicha ma'ruzalari tinglanadi. Ishtirokchilar nemis tilini o'qitish bo'yicha o'zaro tajriba almashib, fanni rivojlantirish masalalarini muhokama qilishda bevosita ishtirok etadi.

O'zbekistondagi Gyote instituti Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda "Nemis tili bilan kasbga yo'naltirish" loyihasini amalga oshirgan. Loyihaning maqsadi:

- o'quvchi yoshlarda nemis tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, nemis tilini o'rganishning afzalliklari bilan tanishtirish, kasbga yo'naltirish jarayonida qo'llab-quvvatlash, loyihaga yo'naltirilgan ta'lim orqali o'quvchilarda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;



madaniyati tili

• nemis tili o'qituvchilarini uslubiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, nemis tili darslari hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarda loyihaga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish;

• hamkorlikda loyihalar tashkil etish orqali maktabda kasbga yo'naltirish jarayonini qo'llab-quvvatlash(nemis tili va texnologiya fani o'qituvchilari hamda maktab psixologlari) dan iborat.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Gyote institutining Toshkent filiali va Germaniyaning Xorijdagi maktablar markaziy boshqarmasi bilan "Maktablar: kelajak hamkorlari" loyihasi doirasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida nemis tilini o'qitishni rivojlantirish va takomillashtirish uchun hamkorlik qilmoqda. Germaniyalik hamkorlar maktablarda nemis tilini o'qitish va o'qituvchilar malakasini oshirish uchun qo'l keladigan zamonaviy multimedia o'quv qo'llanmalari va texnik tomondan ko'mak berib kelmoqda. Mamlakatimizda bunday yirik tadbirlarning o'tkazilishi fan-texnika taraqqiyoti va madaniyatlararo hamkorlikning rivojlanishiga imkon yaratadi.

Til o'rganishda kutubxonalarning o'rni beqiyos. Shunday kutubxonalardan biri – Gyote instituti kutubxonasi. Elektron kutubxonaga ro'yxatdan o'tib obuna bo'lish va karta orqali kutubxonaning elektron fondidan foydalanish juda qulay. Elektron kutubxona kartasiga bevosita BibToGo ilovasi orqali buyurtma berish imkoni ham mavjud. BibToGo – Gyote instituti kutubxonasi ilovasi va shaxsiy hisobingiz bo'lib, istalgan vaqtda multimedia materiallari va xizmatlardan foydalanish mumkin. BibToGoga 35 000 dan ortiq nemis tilidagi elektron kitoblar, audiokitoblar, filmlar, jurnallar, gazetalar va nemis tilidagi o'quv materiallari kiritilgan.

Ta'kidlash joiz, O'zbekistonda yashovchi muayyan bir millat vakillarining milliy madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotlari – Milliy-madaniy markazlar faoliyat olib boradi. Shunday milliy markazlardan biri 1990-yil oktabr oyida O'zbekistonda ochildi. Nemislar madaniyat markazi "Vidergeburt", ya'ni "Tiklanish" degan ma'noni anglatuvchi nom bilan tashkil etilgan bo'lib, u nemis xalqining yo'qolgan urf-odatlarini, an'analari va tilini qayta tiklash uchun haqiqiy imkoniyat taqdim etadi.

Saida HABIBULLAYEVA,
TDIU nemis tili o'qituvchisi

Bilasizmi?

OTM strategik rivojlanishida Scopusning roli

Bugungi kunda aksariyat oliy ta'lim muassasalari tomonidan ilmiy darajali xodimlarga Scopus xalqaro ma'lumotlar bazasida yiliga 1-2 ta maqola chiqarish talabi qo'yilmoqda. Buni oliy ta'lim muassasasi rahbariyatining tashkilot rivoji uchun qilayotgan sa'y-harakati sifatida baholash mumkin. Sababi, har qanday muassasaning ta'lim tizimida o'z o'rniga, o'z so'ziga ega bo'lishi uchun, albatta, xalqaro miqyosdagi jurnallarda chop etilgan materiallari sonining ortishi muhimdir.

Scopus ma'lumotlar bazasida maqola chiqarish – OTMning ilmiy obro'sini, xalqaro reytingdagi o'rni va hatto kadrlar attestatsiyasidagi (ilmiy daraja va unvon) imkoniyatlarini oshiradi. Bu mamlakatimizdagi so'nggi ta'lim va ilmiy siyosat(o'zgaruvchan islohotlar) bilan ham mos keladi. Bundan tashqari, jahon fondlari, grant beruvchilar va ilmiy hamkorlar(ko'pincha tadqiqotchi) muassasaning xalqaro indekslangan nashrlar bazasini tekshiradi. Scopusda ko'p maqolalari bor muassasalar xalqaro grantlarda va hamkor loyihalarda ustunroq ko'rilishi mumkin. Umuman olganda, ushbu bazaga mansub jurnallarda maqola e'lon qilish oliy ta'lim muassasasining obro'si ko'tarilishiga, xalqaro aloqalarning yanada mustahkamlanishiga, bu esa o'z ustida ishlaydigan talabalarning bu tashkilotga bo'lgan qiziqishi ortishiga olib keladi. Bu esa ta'lim muassasasida yetishib chiqayotgan kadrlarning sifatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xullas, bu bazalar bilan ishlash ta'lim muassasasi istiqboli uchun muhim sanaladi.

Guvohi bo'layotganimizdek, bugungi kunda kadrlarning bu bazalar bilan ishlash ko'nikmasi, afsuski, qoniqarli holatda emas. Aksariyat xodimlar bu haqida hatto tushunchaga ham ega emas. Scopusda maqola chiqarayotgan olimlarning 70 foizi pul evaziga hammualliflikni sotib oluvchi soxta "muallif"lardir. Ushbu holat rahbariyat tomonidan qo'yilgan topshiriqning ijrosini ta'minlash uchun o'zini-o'zi qiynashdan boshqa narsa emas. Ta'lim muassasasida yiliga bir marta maqola e'lon qilib "jon saqlab" yuruvchi ana shunday xodimlar bugungi kunda ko'pchilikni tashkil qiladi. Chet ellik olimlar Scopusda yiliga o'nlab maqola chiqarib yurgan bir paytda biz bir dona maqolaga pul evaziga "muallif" bo'lib olib "kun

ko'rayotgan"imiz ancha achinarli. Quyidagi faktlarga e'tibor qaratish.

Fransiyalik olim Raoult Didier Scopusda maqola chiqarish bo'yicha yetakchi sanaladi. U ushbu bazada 3537 ta maqola e'lon qilgan. Iqtiboslari soni 191 610 ta(bu iqtiboslar 90 806 ta maqolada berilgan). H-index ko'rsatkichi 186 ga teng. 2016-yili Scopusda 233 ta maqola chop ettirgan(yozgan maqolalariga o'sha yilning o'zida 9530 ta iqtibosga ega bo'lgan). Scopusdagi ilk faoliyatini 1996-yili boshlagan va dastlabki yildayoq 42 ta maqolani chop ettirishga ulguragan(ushbu maqolalariga bir yilning o'zida 602 ta iqtibos olinishiga ham erishgan) (<https://www.scopus.com/authid/detail.uri?authorId=36040059800&origin=re-sultslist>). (04.11.2025. holatiga ko'ra). O'zbekistonda butun boshli universitet qila olmaydigan ishlarni u yerda birgina olim bajarib qo'yishi mumkin (maqola chiqarish soni bo'yicha, masalan: Andijon davlat universiteti Scopusda 436 ta maqola e'lon qilgan (<https://www.scopus.com/pages/organization/60250846>) (04.11.2025. holatiga ko'ra) Namangan davlat universiteti esa 393 ta). <https://www.scopus.com/pages/organization/60113572> (04.11.2025. holatiga ko'ra). O'zbekiston nomidan Scopusda 48 997 ta maqola e'lon qilingan. Xitoyda bu ko'rsatkich 13 136 580 tani tashkil qiladi. Qo'shma Shtatlarda esa ushbu ko'rsatkich 23 811 551 ta.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining(keyingi o'rinlarda OTM) istiqboli ko'p jihatdan mana shu baza bilan bog'liq bo'lar ekan, ushbu bazada ishlay oluvchi kadrlarni ko'paytirish, ularni moddiy, ma'naviy qo'llab-quvvatlash, zarur texnik yordamlarni ko'rsatish bilan OTM kelajagi uchun jiddiy qadam tashlash mumkin. Kafedrada Scopus bazasi bilan ishlay oladigan, mustaqil maqola chiqara oladigan birgina kadrning bo'lishi o'sha kafedra

ustozlari uchun katta yutuq hisoblana-di. Scopus bazasida ishlay oladigan xodimga zarur sharoit qilib berilsa, u nafaqat kafedrasidagi xodimlarga, balki fakultetidagi boshqa o'qituvchi-tadqiqotchilarga ham foyda keltira oladi.

Scopus bazasida ishlash va maqola nashr etish bo'yicha hozirgi kunda yurtimizda mavjud ushbu muammoli vaziyatga quyidagi takliflar yechim bo'lishi mumkin:

♦ har bir kafedradan ushbu baza bilan ishlay oladigan xodimni aniqlash (kafedrada bunday xodim yo'q bo'lgan taqdirda fakultet miqyosida);

♦ tanlab olingan xodimni jamoat ishlaridan ozod etish;

♦ uning o'quv yuklamasidagi auditoriya mashg'ulotlari soatini, qaysi lavozimda ishlashidan qat'i nazar, 1.0 shtat birlik hisobida 400 soat etib belgilash(aks holda u xodimlar bilan ishlashi tugul o'zi uchun ham maqola yozishga ulgura olmaydi);

♦ xodimlar tomonidan chiqarayotgan maqolalar to'lovini qoplab berish(ma'lum qismini bo'lsa ham xorijiy OTMlarning aksariyati xodimlari chiqarayotgan maqola xarajatlarini qoplab beradi. Natijada xodimning oldida turgan maqola chiqarish borasidagi eng katta to'siqlardan biri yo'q bo'ladi);

♦ xodimga maqolalari soni ortishi uchun zarur texnik yordamlarni(ayrim pulli dasturlardan foydalanish, platformalardan foydalanishi uchun zarur login-parollarni olish bilan) kuchaytirish.

Tan olish kerak, bugungi kunda Respublikamiz bo'ylab olimlarning bu baza bilan ishlash layoqati ancha sust. O'ylaymanki, yuqoridagi keltirilgan takliflar inobatga olinsa, ilmiy salohiyat ancha ko'tarilib, TOP–500, TOP–300 talikka kirgan OTMlar soni yanada ortadi. Bu nafaqat OTMning obro'si oshishiga, balki Respublikaning ham ilmiy sohadagi mavqeyiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Nodirbek HABIBILLAYEV,
Biznes va fan universiteti
"Til va adabiyot ta'limi"
kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori(PhD)

Ta'limga nazar

Hayot algoritm emas

Ta'lim jarayoni shunchalik raqamli muhitga singib ketdiki, o'qituvchi endi yagona bilim manbayi bo'lmay qoldi. Har bir o'quvchi qo'lida butun dunyo axboroti bor. Bu bir tarafdin imkoniyat bo'lsa, ikkinchi tarafdin xavf demakdir. Agar yoshlar ongi to'g'ri yo'naltirilmasa, cheksiz ma'lumotlar ichida o'z yo'lini yo'qotadi. Tarbiyasiz bilim – qurolsiz jangchi, deganlaridek, ta'lim aynan shu tarbiya poydevorini qayta tiklash bosqichida turibdi.

O'qituvchilar shikoyat qiladi: "O'quvchilar bizdan ko'ra telefonidan savollariga tez va oson javob topishmoqda". Ha, bu haqiqat. Shuning uchun ham endi o'qituvchining vazifasi faqat bilim berish emas, balki o'quvchini fikrlash, tanqidiy tahlil qilishga o'rgatish bo'lishi kerak.

Afsuski, bolaning dunyoqarashini ijtimoiy tarmoqlar shakllantiryapti. U yerda hayot soddalashtirilgan, go'yoki

muvaffaqiyat bir necha soniyada keladi. Yosh ong bu tezlikka o'rganib qolmoqda. Lekin hayot algoritm emas, u mehnat, sabr va tajriba talab qiladi. Shunday sharoitda ta'lim tizimi psixologik muvozanatni saqlovchi kuchga aylanishi kerak. Afsuski, byurokratiya, testlar, hisobotlar ko'pligi o'qituvchini bu insoniy qirradan uzoqlashtirib qo'yimoqda...

Shu bois, bugungi ta'lim siyosatida inson omili, mehr, tushunish, empatiya birinchi o'ringa chiqishi kerak. Raqamli ta'lim, onlayn darslar, elektron platformalar – vosita, lekin maqsad emas. Maqsad – fikrlovchi, his qiluvchi yoshlarni tarbiyalash. Chunki ertangi jamiyatni texnologiya emas, insoniylik saqlab qoladi.

Novval RO'ZMETOVA,
TDYU "Xorijiy tillar" kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari doktori(DSc)

Tajriba

Fizika va zamonaviy axborot texnologiyalari

Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal deganlaridek, eshitgandan ko'ra ko'rgan narsalarimiz ko'proq esda qoladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan dars vizual, rang-barang, informatsion, interaktiv o'tadi, o'qituvchi va o'quvchilarning vaqti tejraladi.

Dars jarayonida AKTdan foydalanilsa, o'quvchilar:

darsga yuqori qiziqish bilan qaraydilar;

televizion, video va animatsion ekratlarga reaksiya hosil bo'ladi;

vaqt bilan chegaralangan mashq va testlarni qiziqish bilan yechadilar;

o'quvchilar bir-birlariga yaqindan yordam beradilar;

mustaqil ishlarni bajarganda uyida noutbuk yoki ota-onasining mobil telefoni orqali maxsus materiallardan foydalanishni o'zlashtiradilar.

Shuningdek, fizika fanida bundan tashqari to'garak mashg'uloti o'tishda o'quvchilarga turli darsliklarda bo'lmagan fanga oid yangiliklar, murakkab fizik jarayonlar, formulalarni keltirib chiqarish usullarini, yechiladigan masalalar matnlarini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, fizikaga oid qiziqarli kashfiyotlar, yangiliklar, texnik qurilmalar, axborotlarni internetdan yozib olib to'garak mashg'uloti payti foydalanish ham yaxshi samara beradi.

Mustaqil ta'lim olishda (onlayn) kompyuterda elektron darsliklar, dars ishlanmalari, slaydlar, yangiliklar, fizik jarayonlar kechishi, qiziqarli fizikaga oid materiallar fleshkaga yozib olinib axborot bazasini yaratish o'quvchilarga uyda mustaqil o'rganish imkonini beradi.


Sinfdan va maktabdan tashqari tadbir (kecha, viktorinalarda) yoki fizikaga oid kashfiyotlar kuni, mashhur fizik olimlarning tug'ilgan kunlarini nishonlashda taqdimot usulidan foydalanish mumkin. Bunda kompyuterdagi PowerPoint dasturida

ishlash boshqa dasturlarga qaraganda barcha pedagoglar uchun qulay va osondir. Ushbu dasturda tayyorlangan taqdimot slaydlari materialning rejasi va asosiy tushunchalari, kerakli sxemalar, diagrammalar, jadvallar, rasmlarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda juda ko'p dasturlar mavjud bo'lib, ulardan Ziyonet (ziyonet.uz), Khan Academy (uz.khanacademy.org), "Physics education technology" (PhET) saytlarini misol keltirish mumkin.



1. Physics education Technology dasturi ko'rinishi.




2. Khan Academy (uz.khanacademy.org) dasturi ko'rinishi.

Maktablarning kompyuter xonalarida alohida axborot markazini tashkil qilish mumkin. Bu esa o'z navbatida o'quvchilar va o'qituvchilarga katta qulayliklar yaratadi.

Dars mavzularni tushuntirishda mavzuga oid matnlar, formulalar, rasmlarni skaner orqali kompyuterga kiritib, proyektor yordamida ekranga tushirish, fizikaviy jarayonlarning ketma-ketligi, fizik olimlarning hayoti, laboratoriya ishlarini bajarish ketma-ketligini taqdimot usulidan foydalanib ekranda ko'rsatish, laboratoriya ishlarni o'tkazishda laboratoriya qurilmalarining rasmlari, foydalanish usullari, texnika xavfsizligi qoidalarini, kerakli fizik foydalaniladigan formulalarni qisqacha ko'rsatib, so'ngra vizual laboratoriya ishini o'tkazish mumkin.

Darsda AKTdan foydalanish o'quvchilarning informatika faniga qiziqishini ham oshiradi. Buning uchun har bir fan o'qituvchisi kompyuter savodxonligiga ega bo'lishi, uning turi va ishlash uslubidan xabarador bo'lishi kerak.

Burhon OSTONOV,
Jomboy tumanidagi 1-maktabning
fizika fani o'qituvchisi



1-rasm.
Broun harakatini izohlovchi
slayd ko'rinishi.



Zamonaviy ta'lim Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili – kelajak kaliti

Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili bugungi ta'lim tizimida alohida ahamiyatga ega. Bu yondashuvda ingliz tili faqatgina grammatik qoidalar yoki umumiy so'z boyligini oshirish vositasi emas, balki talabalarni o'z mutaxassisligi bo'yicha xalqaro axborot makoniga olib chiqadigan, kasbiy tafakkurini kengaytiradigan kuchli vositaga aylanadi.

Jahon ta'lim amaliyotida ingliz tilini kasbga yo'naltirilgan holda o'qitish ESP (English for Specific Purposes) konsepsiyasi asosida keng rivojlangan. Buyuk Britaniya va AQSHda ingliz tili ona tili bo'lgani uchun ESP kurslari talabalarni ilmiy uslub va muloqot madaniyatini mukammallashtirishga yo'naltiradi. Ingliz tili ona tili bo'lmagan Yevropa mamlakatlarida esa ESP kurslari ingliz tilini chet tili sifatida kasbga bog'lab o'rgatishga qaratilgan. Masalan, Germaniya yoki Fransiyada "English for Engineering" kursi talabalarni texnik atamalarini ingliz tilida o'rganish va xalqaro hamkorlikda qo'llashga tayyorlaydi.

Chirchiq davlat pedagogika universitetida ham ingliz tilini kasbiy ehtiyojlarga moslashtirib o'qitish yo'lga qo'yilgan. O'quv jarayonida talabalar kasbiy yo'nalishdagi matnlar bilan ishlash, amaliy topshiriqlarni bajarish va turli kommunikativ vaziyatlarda ingliz tilida fikr bildirishni o'rganmoqda. Shuningdek, talabalarning

o'z mutaxassisligiga oid terminlarni ingliz tilida o'zlashtirishiga, xalqaro platformalardan foydalanish, ilmiy maqola yozish va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu jarayon talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida mustaqil fikrlash, xalqaro maydonda o'z sohasini munosib himoya qilish va zamonaviy axborot oqimidan ortda qolmasliklariga xizmat qiladi.

Ko'plab talabalar ingliz tilidagi qo'shimcha adabiyotlar, manbalarni o'rganib, xorijiy tajribani o'z sohasiga tatbiq qilishga qiziqish bildirmoqda. Bir talabamizning so'zlari bilan aytganda: "Ingliz tilini bilish menga nafaqat qo'shimcha bilim, balki o'z mutaxassisligimda ishonch bilan so'zlash imkonini berdi". Uning fikriga ko'ra, til o'rganish nafaqat qo'shimcha bilim, balki kasbiy faoliyatida o'zini ishonch bilan namoyon qilish imkonini bermoqda.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, kasbga yo'naltirilgan ingliz tili – bu nafaqat o'quv dasturining bir qismi, balki talabalar kelajagini belgilab beruvchi kalitdir. Ularning xalqaro maydonda o'z o'rnini topishi, zamonaviy kasb egasi sifatida shakllanishi bevosita chet tillarini bilish darajasiga bog'liq.

Nazokat SAIDQULOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Turizm fakulteti "Fakultetlararo chet tillar" kafedrasida dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Tavsiya

YOSH AVLOD TARBIYASI – KELAJAK POYDEVORI

Kattalarga hurmatni shakllantirish jarayoni ba'zi bolalarda og'ir kechishi mumkin. Shu bois, ularga interaktiv tarbiya darslari o'tish yaxshi samara beradi.

Chunonchi, tarbiyachi *ilm, kitob, qalam, ustoz, murabbiy, o'qituvchi, tarbiyachi* kabi so'zlarni doskaga yozib, baland ovozda o'qiydi. So'ng ma'nosini tarbiyalanuvchilardan so'rashi kerak. Albatta, tarbiyalanuvchilar hali jajji bo'lishgani uchun so'zlar ma'nosini to'liq aytib berolmasligi mumkin. Tarbiyachi fikrlarni to'ldirib, izohlaydi. Keyingi bosqichda shu so'zlar qatnashgan qisqa she'r, hikmat va maqollarni bolalarga yodlatish mumkin.

Tarbiyachi tepada keltirilgan so'zlar mohiyati haqida gapirib, nima ekanligini tarbiyalanuvchilardan so'raydi. Misol uchun, "*Tuganmas xazina va uni qancha ko'p egallasang, shuncha baxtga erishtiradi, u nima? (ilm); kim o'zidagi bor bilim va tarbiyani ulashadi, evaziga hech qanday manfaat talab qilmaydi? (tarbiyachi-murabbiy)*"...

Bog'cha bolasi ikkita onaxonga qo'lini ko'ksiga qo'yib, odob bilan salom bera-

di, uyga kelgach oyoq kiyimini o'zi tozalab, ust-boshini yechib taxlaydi, tuvakdagi gullarga suv quyadi. Shunda ota-onasi so'raydi: "Bu yaxshi ishlarni qayerdan o'rganding?". U "Bog'chamizda tarbiyachi opalarimizdan" deb javob beradi.

Uslubchi yoki direktor o'rinsosari tarbiyachilarga "Ezgulik va yaxshilik nima?", "Tarbiyaning nozik qirralari", "Ustozga e'tibor-u ehtirom ko'rsataylik", "Hurmat ko'rsatgan izzatga erishar" va boshqa mavzularda ma'ruzalar yozib hamkasblari oldida o'qib berishlarini so'raydi. Tarbiyachilar jamoa bilan birga mehnat faxriylari, nafaqadagi tarbiyachi ustozlar xonadonlariga tashrif buyurib, ularni bog'chaga taklif etishi ham ayni muddao.

Yuqoridagi usullar katta tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilariga mo'ljallangan. Shu bilan birga, ijodiy faoliyat mashg'ulotlariga faxriy tarbiyachilar taklif etilsa, endi ish boshlagan tarbiyachilar uchun anchayin manfaatli bo'ladi.

Hanifaxon KARIMOVA,
Farg'ona tumanidagi 55-DMTT direktori

Mulohaza

KELAJAKNI UNUTMAYLIK!



Millatning etnopsixologik ko‘rinishini belgilaydigan xususiyatlardan biri – o‘tmishi, oilada kattalarning jamiyatga, bolalarga munosabatidir. Shu bois, tariximizga hammamiz hurmat bilan qaraymiz. Ammo...

O‘tmishimizga haddan ortiq sig‘inib qolganimiz, kelajagimizni kechaning urf-odatlarida ko‘rishimiz rad etib bo‘lmas haqiqat. Kelajakka o‘zimiz intilmaganimiz yetmaganidek, bolalarimizni ham ko‘pi bilan bugunga moslab o‘stiramiz, ularning ertaga, bundan 30 yoki 40 yil keyin qanday yashashi haqida o‘ylamaymiz. Shu o‘rinda yana bir savol tug‘iladi: xo‘sh, o‘tmishdagi psixologik, ayniqsa, etnopsixologik xususiyatlarimizni bilamizmi? Ayni savolga mustaqil javob bera olamizmi? Ko‘p hollarda, yo‘q, albatta. Qizig‘i shundaki, nafaqat o‘tmishimiz, balki bugunimizni bilishga va uni o‘zgartirishga mutlaq befarqmiz. Aks holda (Konstitutsiyamizning 12-moddasida belgilanganidek) mafkurasiz yashamagan bo‘lardik. Mafkura esa millatning o‘zligidir.

Millatning buguni va kelajagi oilada, asosan ayollar tomonidan tarbiyalanishini aksariyatimiz unutimiz va ayollarga ko‘pincha konservativ munosabatda bo‘lamiz. Oqibatda farzandlarimizni ham ularga ikkinchi darajali insonlardek qaraydigan qilib tarbiyalaymiz. Keyinchalik bunga o‘zimiz hayron bo‘lamiz, achinamiz, biroq unchalik e‘tibor bermaymiz.

Bizda qizlar o‘rtacha 17-18, o‘g‘il bolalar 18–22 yoshlarida oila quradi. Bu ko‘rsatkich Yevropada 25–27, Angliyada 30, AQSHda 26–28 yoshga to‘g‘ri keladi(Oxirgi yillarda raqamlar bundan ham yuqorilab ketyapti).

Ayni shu ma‘lumotlarga tayanib etnoguruhlarining kelajagi necha yoshdagi ayollar qo‘lida ekanligini bilish mumkin va hali o‘zi tarbiyaga muhtoj ayollarning yoshlar tarbiyasiga mas‘ulligini ko‘rib faqatgina achinish hissi uyg‘onadi. Agar bu yoshdagi xotin-qizlarning ma‘lumoti, dunyoqarash darajasi va boshqa omillar ham hisobga olinsa, rivojlanayotgan mamlakatlardagi ahvolni aniq ko‘rish va ularning kelajagi hali-beri o‘zgarmasligini bashorat qilish mumkin. Bunga qarab Yevropa va Amerikaga migrantlar oqimi ko‘pligining sababini tushunganday bo‘lasiz. Ular nafaqat pul, balki yaxshi ta‘lim va farovon hayot ilinjida bu o‘lkalarga ketmoqda. Bu esa migrantlar yetkazib berayotgan mamlakatlarning ma‘naviy, mafkuraviy fojiasidir.

Har joyda o‘zimizning bolajon xalq ekanimizdan faxrlanib yuramiz. Aslida ham shundaymi? Etnopsixologik nuqtayi nazardan qaralganda, vaziyat unchalik ham ideal emas. Bolani haqiqatan ham sevish uni millatning kelajagi sifatida tarbiyalash, hayotga tayyorlash, fikr erkinligi va ruhiy mustaqilligini ta‘minlash demakdir. Afsuski, ko‘pincha shu masala ustida yetarlicha o‘ylamaymiz, oila muhitida bolalarga ko‘p ham e‘tibor beravermaymiz.

Erkaklarning aksariyati oilada “bola

tarbiyasi bilan ona shug‘ullanadi” degan fikrga qat‘iy ishonadi. Ular ko‘pincha asosan “moddiy ta‘minot mening zimmamda” deb o‘ylab, bolalarning ma‘naviy ehtiyojlarini ikkinchi o‘ringa qo‘yadi. Natijada bola onaning mehrini oladi, biroq otaning hayotiy tajribasidan, mas‘uliyat hissidan mahrum bo‘lib o‘sadi. Otasidan zarur hayot saboqlarini olmagan bola keyinchalik jamiyatda o‘z o‘rnini topishga qiynaladi.

Buni Rossiyada mehnat muhojiri sifatida ishlayotgan yurtdoshlarimiz misolida ham ko‘rish mumkin. Ularning ko‘pchiligi o‘z huquqini himoya qila olmaydi, nohaqlik bo‘lsa ham sukut saqlashni afzal ko‘radi. Bu esa o‘zini himoya qilish ruhining bolalikdan shakllanmaganini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, davlatimizning mehnat muhojirlari tayyorlovchi davlatga aylanib borayotgani juda achinarli.

Otaning nafaqat o‘g‘il bolalar, balki qizlar tarbiyasida ham o‘rni beqiyos. Ota tarbiyasini olmagan qizlar ayniqsa oila qurishda, turmush ortog‘i tanlashda (ko‘p hollarda ular bu huquqdan ham mahrum), eri bilan sog‘lom munosabat o‘rnatishda qiynaladi. Natijada oilada nosog‘lom muhit shakllanadi. Shu bois ham bolalar tarbiyasida otaning roli haqida ilmiy maqolalar yozish, mavjud tadqiqotlarni keng jamoatchilikka yetkazish nihoyatda muhim.

Onalar esa tarbiya jarayonida “otangga aytaman”, “dadang uradi” kabi so‘zlar bilan farzand ruhiga qo‘rquv singdiradi. Shu tarzda bola ongida erkak obrazi – jazolovchi, sovuq, tahdidli shaxs sifatida shakllanadi. Keyinchalik u jamiyatda har qanday hokimiyat, rahbar yoki kuch timsolida ham ana shu qo‘rquvni ko‘radi. Bolalar “bo‘ysunish”, “jim turish”, “sukut saqlash” ruhida tarbiyalanadi. Bu holat milliy ongni susaytiradi, jamiyatda faol, dadil, jur‘atli shaxslarning kam bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasiga qaraylik. Ularda bola tarbiyasi, avvalo, hurmat va muloqot madaniyatidir. Ular hech qachon farzandini “otangga aytaman” deya qo‘rqitishmaydi. Masalan, rus oilalarida erkaklarning roli u qadar yuqori emas. Bolalarga ko‘proq erkinlik beriladi. Gruzinlarda esa uyda ham, ko‘chada ham erkaklarning roli ustunligi bois bolalar har qanday vaziyatda o‘z muammosini erkakcha hal qilishga urinishadi. Amerikalik va yevropaliklar bola tarbiyasida inson qadr-qimmatini va huquqi birinchi o‘rinda turishini yaqqol ko‘rish mumkin. Ular bola tarbiyasini maktabga yuklamaydi. Maktab bolaning ilm olish mas-kani xolos. O‘qituvchilar bolaning tarbiyasiga javob bermaydi. Bu to‘lig‘icha ota-onalar gardaniga tushadi.

Bola tarbiyasida yahudiylarning yondashuvi ham o‘rnak olsa arzirlidir.

Masalan, ularda onalar har qanday vaziyatda farzandini yomon bola deb o‘ylamaydi va boshqalarning ham bunday o‘ylashiga yo‘l qo‘ymaydi.

Bolalar tarbiyasida ko‘p duch kelinadigan kamchiliklardan yana biri – bu ularning ruhiyatiga chuqur ta‘sir et-sa-da, kattalar beparvo ishlataveradigan “kallavaram”, “tentak”, “kallang ishlaymaydi”, “eshshak”, “mol”, “o‘l”, “yer yutsin” kabi so‘zlardir. Eng achinarlisi, bu so‘zlarni ko‘pincha onalar o‘ylamay turib aytishadi, ba‘zan esa otalar bundan ham og‘irroq so‘zlar bilan farzandini kamsitadi.

Rivojlangan davlatlardan o‘rnak olsak bo‘ladigan yana bir jihat ularda bolalarga beriladigan keng erkinlikdir. Bu erkinlik befarqlik hisobiga bo‘lmaydi. Agar bola biror xato qilsa, ota-onalar uni jazolashga shoshishmaydi. Bolaga aybi yotig‘i bilan tushuntirilib, muam-moga yechim izlash yo‘llari o‘rgatila-di. Shu bilan birga, bolaga ota-onaga hurmat, bilim olishda mas‘uliyatsizlik qilmaslik, sog‘liqni asrash, oila va dav-latchilik qadriyatlarini hurmat qilish kabi asosiy qadriyatlarni singdirishadi.

Butun dunyoga mashhur, hammamiz sevib tomosha qiladigan Amerika kino-lariga e‘tibor bering. Unda insonlarning davlatga va uning ramzlariga bo‘lgan hurmatiga ko‘p sahnalarda guvoh bo‘lishingiz mumkin. Undan tashqari, amerikaliklar har qanday vaziyatda oilasi va o‘z haq-huquqlarini himoya qilishga tayyor. Bizda-chi?

Bizda esa davlat idoralari tarafidan huquqlar poymol qilinganida (deylik uyimiz asossiz tarzda buziladigan bo‘lsa) ko‘pincha faqat onalar, ayollari-miz dod-voy solishganini, erkaklarning bir chetda tomoshabin bo‘lib turganini ko‘ramiz. Bugun o‘z uyini nohaqlik-dan himoya qilolmagan erkak, ertaga vatanini qanday himoya qiladi?

Har bir inson qalbida o‘zidan yaxshi avlod qoldirish niyati yotadi. Bola hayotiy tajribasini, odobini, dunyoqarashini, avvalo, oilasidan oladi. Oiladagi muhit va kattalarning munosabati bolaning butun hayot yo‘lini belgilaydi. Agar bolangiz baxtli bo‘lishini istasangiz, o‘zingiz baxtli bo‘ling. Eng yaxshi saboq – o‘rnak bo‘lishdir. Ota-ona o‘zi qilmagan ishini bolasidan talab qilmasligi kerak. Farzandiga mustaqil harakat qilish imkonini berishi, xato qilganida ham darrov jazolashga shoshmay suhbat va tushuntirish orqali muammoni yechishga harakat qilishi lozim.

Farzandingizni “mening bolam eng yaxshi bola” degan ishonch bilan tarbiyalang. Oila davrasida uni maqtab turishni ham unutmang. Bu bola ruhiyatiga ishonch va o‘z qadrini bilish his-sini singdiradi.

MaqtoV uni yangi yutuqlarga yetak-laydi va u yana sizning e‘tiboringizni qozonishga harakat qiladi.

Unutmaslik kerak, ota-ona bo‘lish – bu nafaqat ulkan mas‘uliyat, balki o‘zi-ga xos bir san‘atdir. Har bir ota-ona bu san‘atni o‘rganishi, har kuni unga yangicha ma‘no berib yashashi zarur.

Farzandlaringizni tarbiyalarkansiz, ularning ham kun kelib ota-ona bo‘lishini hisobga oling. Bolalarni hayot oldi-dagi mas‘uliyatni his etishga tayyor-lab boring. Bu – bola jamiyatda to‘g‘ri yashashga o‘rganishining eng muhim yo‘lidir. Shundagina u nafaqat o‘z oilasining, balki Vatani, millati, xalqi-ning qadriyatlarini ham chuqur anglab, hurmat bilan qabul qiladi. Farzandingiz sizdan olgan tajriba va an‘analarni keyin-chalik o‘z bolalariga ham o‘rgatadi.

Farzand tarbiyasida yana bir muhim masala bolaning doimiy bandligini ta‘minlashdir. Bo‘sh vaqt – befarqlik ildizi. Foydali bandlikni tashkil etish esa kattalarning eng muhim vazifa-sidir. Yoshligidan foydali ish bilan band bo‘lgan bola ulg‘ayganida o‘z orzusi ortidan dadil qadamlar bilan yurishni o‘rganadi.

Bugunning ota-onalari duch ke-layotgan eng katta muammolardan biri – bolalarning kompyuter va internet sahifalaridan ajralmasligidir. Kattalar ko‘pincha bu holatni faqat salbiy to-mondan baholashadi: go‘yo internet, telefon yoki kompyuter yoshlarni bu-zayotgan, ularni hayotdan uzoqlashti-rayotgan vositalardir. Ammo bu masala-ga faqat salbiy nuqtayi nazardan qarash to‘g‘ri emas.

Bugungi kunda internet va tex-nologiyalarsiz kelajakni tasavvur etish-ning o‘zi mushkul. Demak, asosiy ma-sala – bu vositalarni butunlay taqiqlash emas, balki yoshlarni ulardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatishdir. Buning uchun esa ota-onadan sabr, kuzatuv-chanlik va ijodkorlik talab etiladi.

Farzandingiz biror narsani bilmay qoldimi, uni koyishdan ko‘ra, “Kel, buni internetdan birgalikda izlab to-paylik” deb qiziqting. Shunda u in-ternetni shunchaki o‘yin yoki vaqt o‘tkazish vositasi emas, bilim manbayi sifatida qabul qila boshlaydi. Bo‘sh vaqtlarida faqat turli o‘yinlarni emas, balki ilmiy-amaliy dasturlar yoki qiziqarli tajriba videolarini tomosha qilishga odatlantiring.

Buning uchun siz, avvalo, bola-ngizning nimalarga qiziqishini bili-shingiz kerak. U yoqtiradigan mavzu-da foydali bir video yoki dastur topib, uni birgalikda ko‘ring. Bunday kichik qadamlardan boshlangan jarayon ko‘p o‘tmay o‘z samarasini beradi: endi bolangiz siz ilgari ko‘rmagan qiziqarli dastur yoki foydali ma‘lumotni topib, o‘zi sizga faxr bilan ko‘rsatishni bosh-laydi. Ana shunda siz farzandi bilan til topishgan, zamon ruhini to‘g‘ri ang-lagan ota-ona bo‘lasiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mum-kinki, farzandlarimizni tarbiyalash uslubimizga tanqidiy nazar solishimiz zarur. Chunki millat kelajagi – biz tar-biyalayotgan bolalarning qo‘lida. Ular qanday bo‘lsa, ertangi kunimiz ham shunday bo‘ladi.

Mahmud YO‘LDOSHEV,
psixologiya fanlari nomzodi,
Yozuvchilar va Jurnalistlar
uyushmalari a‘zosi, yurist



Ta'kid

MA'NAVIYAT CHEGARASI QAYERDA?

*Ma'naviyat nima?
U ko'rinmasa, bilinmasa.
Qachon kishi ma'naviyatli
bo'ladi?*

*Umuman, inson ma'naviyatning
chegarasi bormi o'zi?*

Ba'zan kishilar o'rtasida bahs kechadi: “Ustoz otangdan ulug'imi?” yoki “Ustoz otangday ulug'imi?” Ko'pchilik ustoz deganda maktab o'qituvchisini tushunar ekan. Naqadar tor fikrlaymiz-a. Ustoz bu keng ma'noli so'z.

Ustoz otamiz, onamiz, bobo-buvimiz, qo'shnimiz, do'stimiz, kitoblar, radio, TV, matbuot, umuman, kim sizga hayotdan saboq bersa, shu lahzada u siz uchun ustoz bo'la oladi. Hatto ba'zan farzandlarimiz ham favqulodda “ustozlik” qila oladi, ulardan ham nimadir o'rganish mumkin. Zero, taraqqiyot qonuni shunday. Bir yurtdoshimiz yozadi: “otam men uchun har qanday ustozdan buyuk”. Qizig'i, yurtdoshimiz otaning buyukligini anglabdi-yu, otaning buyuk ekanligini ularga kim o'rgatganligiga kelganda aqli sal pand beribdi. Mana shu yerda insonning ma'naviyati “labbay” deb o'rtaga chiqadi. Otam men uchun buyuk, shubhasiz. Ammo otamning buyukligini anglatgan ustozim otamdan ham buyuk. Balki

bu ustoz onamdir. Balki buvim, bobom, balki qo'shnimdir. Balki kitobdir. Ustoz deganda shaxs tushunilmaydi. Ilm tushuniladi. Bu o'rinda ustoz majoziy ma'noda kel-yapti. Yangi ishga kirgan vaqtlarim edi. Yoshi katta bir ustoz darsimga kirdi. Darsdan keyin maktab koridorida, o'quvchilar yonida menga kamchiliklarim haqida gapira ketdi. Bir qo'li belda, biri havoda(paxsa qilib). Shu payt boshqa bir o'qituvchi kelib:

– Qo'lingizni tushirib gapiring!.. Hali yosh mutaxassis bu qiz, – dedi. Bildimki, farosat ilmdan ustun. Bildimki, kishida ma'naviyat birlamchi ekan. Uy ichida ayollar bo'lsa, erkak kishi ko'chadan kelganligini bildirish uchun sal yo'taladi. Buni eshitib xona ichidagi ayollar uyoqbuyog'iga qarab oladi. Buni ma'naviyat deyishadi. Aka-uka va kelinni mashinada biror yoqqa olib borayotganda, yo'lda mashina to'xtab, uka tashqariga chiqqanda aka ham mashina ichida qolmay, biror ish bahonasida tashqariga chiqadi. Buning nomini ma'naviyat deyishadi. Ota bo'yi yetgan qizlariga onasi orqali gapini yetkazadi. Buni ma'naviyat deyishadi. Qizlar yoki kelinlar xonadon erkaklari uyda bo'lmaganda yoki

uzoqroqda bo'lgandagina hojat-xonadan yoki hammomdan foydalanishadi. Buni ma'naviyat deyishadi. Momalarimiz bobolarimizni ismi bilan emas, “bobosi” deb chaqirishgan. Bobolarimiz ham ularga katta o'g'illarining(farzandlarining) ismi bilan murojaat qilishgan. Bu ham ma'naviyat, qadrdonim. Ba'zida bozorlarda ochko yig'ish, piar uchun bepul kiyim-kechak tarqatilyotganining guvohi bo'lamiz. Shu tiqilinchda ayollar, bolalar, kap-katta erkaklar bir-birini urib-surib, baqirib qandaydir matohlarga egalik qilmoqchi bo'lishadi. Ko'rib, seskanib ketasan kishi. Shundaylar bor. Hadya bersang olmaydi. “Bizdan ham muhtojlar bor. O'shalariga bering. Ular bizdan ko'ra haqdor”, deyishadi. Ularda g'urur, or-nomus kuchli bo'ladi. Bilmadim, balki shular sabab osmon qulab tushmayotgandir... Balki shular sabab hayot davom etayotgandir... Insonning ma'naviyat deb atalmish rizqdan nasibasi bo'lmasa, uning inson ekanligiga shubham bor. U shunchaki biologik odam. Naqadar to'g'ri gap.

Sohiba SHOMIYEVA,
Zarafshon shahridagi
13-IDUM ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi

Kitob – jim ustoz! U ovoz chiqarmaydi, nasihat qilmaydi, qattiq gapirmaydi. Lekin varaqlarini ochgan odamga hamisha so'zlaydi, saboq beradi. Kitob bizga sinchkov ustozdek mehr bilan qaraydi. Bir qarashda u faqat qog'oz va siyohdan iboratdek tuyuladi. Aslida kitob ko'rinmas daryo: unda tarix oqadi, kelajak chiziladi, inson qalbi tarbiyalanadi.

KITOBLARNING HIDI BORMI?

Kitobning o'ziga xos hidi bor. Bu hid shunchaki qog'ozning isi emas. U hikmatning nafari, odamni o'ziga tortadigan sirli qudratdir. Bugun ko'pchilik farzandining qo'lga kitob emas, telefon tutqazadi. Telefon bola vaqtini oladi, kitob esa uning dunyoqarashini boyitadi. Telefonning quvvati tugaydi, kitobning hidi esa umr bo'yi yodda qoladi. Telefonni qo'limizdan qo'yib unutishimiz mumkin, lekin bolaligimizda o'qigan birgina asar butun hayotimizni o'zgartirib yuborishga qodir.

*Nur beradi qalbingizga,
Yo'l beradi yo'lingizga,
Chiroq yoqar dilingizga,
Kitob o'qish qanday yaxshi!?*

Munavvar BAXTIYOROVA,
Oriyental universiteti
“Uzluksiz ta'lim pedagogikasi”
kafedrası o'qituvchisi

Oramizdagi odamlar

O'TMISHGA KO'PRIK, KELAJAKKA CHIROQ TUTAYOTGAN USTOZ

Ba'zan inson butun umrini birgina orzu, birgina ezgu niyat bilan yashab o'tadi. Bunday insonlarning yuragi o'zgacha uradi. Ularning har bir qadami, har bir ishi ortida Vatanga muhabbat, el-yurtga sadoqat mujassam. Gap tarixning jimjimador sahifalarini dildan ardoqlagan, unutilayotgan xotiralarni yana bir bor jonlantirgan, bir emas, beshta muzeyga asos solgan fidoyi o'qituvchi haqida ketyapti. U oddiy ustoz emas – u o'tmishga ko'prikl, kelajakka chiroq tutgan ma'rifatparvar. Uning qo'li bilan to'plangan eksponatlar nafaqat buyum, balki har birida bir dard, bir tarix, bir hayot chizig'i bor.

Qosim Yoqubov. Bekobodga borib “Qosim Yoqubovning maktabi qayerda?” desangiz hamma taniydi. Chunki Bekobodning yarmidan ko'p aholisi ustozning shogirdlari. U hayotni shunchaki yashab o'tgisi kelmaydigan, “mendan keyin ham yoshlarga foydam tegib tursin” deydigan tinib-tinchimas malim. U mehnatdan qochmaydi. Bir ishini boshladimi, oxiriga yetkazmay qo'ymaydi. Bu yil sakson yoshni qarshilagan ustozning maktabda ish faoliyatini boshlaganiga 64 yil to'ldi.



E'zoz

YURAGIMDAGI ARDOQLI SURAT

Birinci ustoz inson hayotida alohida o'rin tutadi. Chunki ilk saboq, qo'llab-quvvatlov aynan birinchi ustozdan boshlanadi. Birinchi o'qituvchim – Nafisa opa Mahkamova Toshkent tumanidagi 16-maktabda dars bergan. Ustozning sabr-toqati va mehribonligi haqiqatan ham sinfdoshlarimiz orasida mashhur edi.

Bir kuni darsda sinfdoshlarim bilan biror beparvolik qildik. Nafisa opa yana bir bor ta'limning ahamiyatini yengil, o'ziga xos hazil va hikoyalar bilan tushuntirdi. Ustozning o'sha nutqidan so'ng, darsga munosabatimiz o'zgardi. Bundan tashqari, ko'plab ibratli hikoyalari bizni o'qish, yaxshi odatlarni shakllantirishga ilhomlantirardi.

Ustozlik – yurakka yo'g'rilgan, abadiyatga daxldor kasbdir. Har bir yutuq, ezgu amalda ularning duolari bor. Jumladan, ilmiy faoliyatimda qo'lga kiritgan PhD darajamning asosi – il bilimlarim va ustozimning mehdirdi.

Birinci ustozim – yuragimdagi eng

Nodira MANSUROVA,
TDIU katta o'qituvchisi

qiyotiga sarflagan, buning evaziga ustoz degan ulug'rutbaga sazovor bo'lgan insonning mazmunli umr yo'lga havas qilmay bo'lmaydi.

Bekobod tumanidagi 11-maktabda umr bo'yi ishlab, faoliyati davomida minglab shogirdlar yetishtirgan, ayni paytda shogirdlar ardog'idagi ustoz noyob eksponatlar yig'ishni o'z maslagiga aylantirgan. Shuning uchun ham uning umr bo'yi yiqqan ashyolari

“Temuriylik tarixi”, “Xotira uy-muzeyi”, “O'lka tarixi”, “Dalvarzin tarixi” va “11-maktab tarixi” kabi 5 ta muzeyga asos solgan. Ayni paytda yosh olimlar kelib o'zlarining ilmiy ishlari uchun manba sifatida tarixiy qo'lyozma va eksponatlardan beminnat foydalanishadi.

Yoshligida “maktab o'g'li”, hozir “maktab bobosi” degan sharafiga erishgan ustoz shogirdlarini ham boshqacha siylab kelgan. O'quvchilarini otalarcha yaxshi ko'radi.

– Ustozning qiziq, lekin hammaga o'nak bo'ladigan xislatlari ko'p. Ayniqsa, yosh ustozlar endigina ishga kelganda birinchi qiladigan ishim ularni domla bilan tanishtirish, ustozning yo'l-yo'rig'ini o'rganishga undash bo'ladi, – deydi 11-maktab direktori Tohir Majidov. – Bilasizmi, Qosim domla har yili maktabni a'lo bahoga bitirgan o'quvchilarning har biriga 200 ming so'mdan pul mukofoti berishdan tashqari, yil davomida o'quvchilar uchun otalik yordamini ham ko'rsatib keladi.

Har bir davr o'z qahramonini yetishtiradi.

Xotira

Tilak Jo'ra Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)da bizzga tarjima nazariyasidan dars berardi. Uning har bir darsi talabalar tomonidan yangi san'at asaridek kutib olinardi. Nihoyatda zakiy o'qituvchilardan edi.

SAYOTNI BO'ZLATIB KETGAN SHOIR

90 daqiqalik dars davomida stol ustida turgan daf-tariga bir marta ham qaramay dars o'ta olardi. Universitetda iste'dodli ustozlar, olimlar, professorlar ko'p edi, biroq biz talabalar Tilak Jo'ra o'tadigan darslarini intizorlik bilan, sog'imib kutardik. Ustoz ma'ruzasini boshlashi bilan auditoriya suv quygandek jimjit bo'lib qoldi. Domlanning har bir so'zini jon qulog'imiz bilan tinglardik. Ma'ruza tinglash davomida talabalar tomonidan yo'llangan har bir savol javobsiz qolmasdi.

Ustoz fidoyi, insonparvar odam edi. Uning yana bir yaxshi fazilati – mehmondo'stligi edi. Buxorolik talabalarni albatta Toshkentdagi xonadonida mehmonga taklif qilardi.

“Toshkentdagi uyimdan ham bir piyola choy ichib ketingar”, derdi. Yozgi ta'til paytlari universitetda ta'lim olayotgan o'ziga yaqin talabalarni Qorako'lning so'lim Sayot qishlog'iga taklif qilardi.

Bir kuni bir talaba qiz darsga yigirma daqiqa kech qolib keldi, kirishga ruxsat so'rab eshik oldida ko'zlari qizargan holda boshini egib turardi:

– Qayerdanziz, singlim? – dedi Tilak Jo'ra qizga ma'yus termulib.

– Surxondaryodan, – dedi kursdoshimiz.

– Kiraverishda yig'layotgan bolani ko'tarib turgan ayol kim? – so'radi domla.

– Onam. Chaqalog'im bor. Bolamga qarashish uchun onam men bilan birga kelgan. Negadir bugun qizcham onamga ko'nmay ko'p yig'layapti, – dedi. Shunda domla cho'ntagidan bitta o'n so'mlik chiqarib, “Mang, singlim! Pulni olingda, qizchangizga kasha olib bering! Chaqaloqni yig'latib o'tirmang. Sizga javob, – dedi.

Kursdoshimiz pulni olarkan, yig'lab yubordi. Uning shu pulga muhtoj ekanligi holatidan sezilib turardi.

Tilak Jo'ra bebaho, samimiy, mard va olijanob inson edi. Yurtini sevardi! Yurtdoshlarini qadrlardi! O'zbek xalqining iftixori, yetuk shoiri edi. Tilak Jo'radan mudom yodga olinadigan, qadrlanadigan, ardoqlanadigan porloq nom qoldi! Meros bo'lib bir necha she'riy kitoblari qoldi. Ustozning qilgan ezgu va xayrli ishlari Qorako'l tumanining so'lim Sayot qishlog'idagi Tilak Jo'ra uy-muzeyida aks etgan.

Azam O'ROQOV,
Buxoro viloyat ko'zi ojizlar maxsus
kutubxonasi direktori, “Shuhrat” medali sohibi



Biroq ba'zi insonlar bor – ular shunchaki zamonasining emas, balki kelajak avlodning ham ma'naviy yo'lini yoritib beradi. Beshta muzeyga asos solgan bu o'qituvchi ham ana shunday fidoyilardan biri. U har bir eksponat, har bir devor, har bir yodgorlik orqali yuraklar bilan so'zlashmoqda, yoshlarga tarixni sevishini, uni asrashni o'rgatmoqda. Uning mehnati – dars emas, hayot saboqlaridan to'qilgan ruhiy tarbiya, milliy o'zlikni anglash maktabidir.

Bugun biz bu o'qituvchining tashabbusi, mehnatini qadrlashimiz, uni keng ommaga yetkazishimiz kerak. Chunki u yaratgan muzeylar bu faqatgina to'plam emas, balki bugungi va er-tangi kun o'rtasidagi boy ma'naviy ko'prikdir. Bunday insonlar bor ekan, tarix unutilmaydi, millat ruhi so'nmaydi, yuraklar ezigulikka osh-no bo'lib yashaydi.

Fayoza AVLAYEVA,
“Ma'rifat” muxbiri



Ijdodkor pedagog

Bundan 56 yil muqaddam Jondor tumanidagi Samonchuq qishlog'ida istiqomat qiluvchi, shu hududdagi maktab direktori Ashur Norov xonadonida sakkizinchi farzand dunyoga keldi. Unga Ixtiyor deb ism qo'yishdi. Bolaligidanoq o'qish-yozishga ishtiyoqmand bolakay sal esini tanigach, savol beraverib, aka-opalarini holi-joniga qo'ymasdi. O'shandayoq uning o'qimishli inson bo'lishini ko'pchilik o'zicha bashorat qilishgandi. Ko'p o'tmay bu oilada yana to'rt farzand dunyoga keldi. Ixtiyorning

Shogirdlar yutug'i

Maqolamiz qahramonining sa'y-harakatlari shogirdlari yutuqlarida o'z aksini topmoqda. 2021-yili O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi

Obid QO'LDOSH

Elda aziz

Olim-u muallim-u mutarjim



Sharq mumtoz adabiyotining yirik soʻz sanʼatkori Saʼdiy Sheroziy mashhur “Guliston” asarida shunday hikoyat keltiradi:

Hikmat sohibi boʻlgan ulugʻ zot bir zohiddan soʻradiki, “Falon obid haqida sen nima deysan, chunki boshqalar kelib, uni menga koʻp yomonlaydilar. Zohid javob berdi: men uning zohiri, yaʼni xatti-harakatlarida hech ayb koʻrmayman va botini – ichki olamida biror qusur borligini bilmayman”.

Darhaqiqat, kamolot kasb etgan, gʻayrati joʻshqin, himmati yuksak, oʻzligini ilm-u maʼrifatdan izlagan – topgan chinakam insonlarning hayoti boshqalar uchun hamisha ibratlidir. Chunki ilm yoʻli – mashaqqat-u matonat ila yuzaklikka teranlik, havoyilikka tamkin-u tavakkul, oʻtkinchi hoy-u havaslarga beparvolik bilan sokin qaray oladigan koʻngli ummon, ruhiyati osmon – benihoya ulugʻvor kishilar yoʻli. Haqiqiy ilm egalari uchun bu yoʻlning adoqsiz azobi ham rohat, uyqusiz tunlari-da farogʻat, zahmati esa huzur-halovatdir. Bu toifaning turfa maydaliklarga – oʻzgalar turish-turmushi haqidagi yaxshi-yomon, yolgʻon-yashiq gʻiybat-u igʻvolarga, turli gap-soʻzlarga, shon-shuhrat ilinjida havoyi suronlar-u huda-behuda davra talashishlarga fursatlari ham, toqatlari ham yoʻq, albatta. Hech shubhasiz, taniqli adabiyotshunos, fidoyi ustoz, mahoratli tarjimon, professor Ergash Ochilov haqida soʻz ketsa, eng avvalo, yurakni ana shunday farahli oʻy-xayollar, samimiy kechinmalar qamrab oladi.

Ergash aka Buxorodan shimolroqda joylashgan Shofirkon tumanidagi sahro-yu choʻllarga tutashib ketgan Yangiqishloqda tugʻilgan. Tabiatidagi toʻporilik, ochiqlik, kengfeʼllik, bosiqlig-u sipolikka bolalik yillari kechgan ana shu – kengliklar shukhi ham sababdir, balki. Quyoshning oltin kabi tovlanib, saksovluzor-u yantoqzorlar uzra boʻy koʻrsatishi-yu qumliklar ortiga mavjlanib – qizarib botishini zavq ila kuzatgan yoshlik tasavvurlari boʻlajak olimni adabiyot olamiga bir umrlik oshno qilgan boʻlsa, ne tong. Ana shu yoniy tuygʻular, soʻzga oshuftalik hissi keyinchalik uni ToshDUNing Jurnalistika fakultetiga yetaklab keldi – bu yerda izlandi, oʻqidi, oʻrgandi, katta ustozlardan tahsil oldi.

Adabiyotshunosning talabalikdan keyingi deyarli qirq yillik joʻshqin va samarali faoliyati bevosita Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan chambarchas bogʻliq: dastlab mustaqil izlanuvchi boʻldi, bir muddat akademianing Prezidiumida faoliyat yuritdi, Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti-da kichik ilmiy xodimlikdan boʻlim mudiri lavozimigacha boʻlgan sharaflari yoʻlni bosib oʻtdi. Ilmiy salohiyatining yuksakligi, qalamining oʻtkirliigi, masʼuliyati va ijodkorligi sabab 25 yildan buyon institutning filologiya sohasida respublikada yetakchi boʻlgan nashr – “Oʻzbek tili va adabiyoti” jurnaliga masʼul kotiblik ham qilmoqda. Filologiya fanlari nomzodi(1994) ilmiy darajasiga, katta ilmiy xodim(2019) va professor(2025) ilmiy unvonlariga ega.

Ha, Ergash aka sira tinim bilmaydi: toʻxtovsiz izlanadi, yozadi, tahrir qiladi – doimiy va davomli ishlaydi. Uning eng

ibratli fazilati ham mana shu. Rahmatli ustoz, akademik Toʻra Mirzayev gohida hazillashib: “Ergash uyiga borganda hech uxlamikan yoki ertasiga toʻishga kelguncha faqat yozarmikan?”, derdi. Toʻgʻri, qayda boʻlmasin – avtobus yoki poyezdda safarga oʻtlanadimi, turli majlislar yoki yigʻinlarda qatnashadimi – qoʻlida qalam, ruchka, qogʻoz, xullas, u nimadir bilan band boʻladi, hatto har bir nafasi ilm ishtiyoqi, mehnat jarayoni bilan uzviy va uzluksiz uygʻundir. Gap shundaki, E.Ochilov hamrohligida bir guruh olimlar bilan Qoʻqonga ilmiy safar uyushtirdik, ish jarayonidagi toliqishlardan uzoqlashib, anjuman bahonasida hordiq chiqarish ishtiyoqi ham yoʻq emas edi, aslida. Shunda ham Ergash aka poyezd vagonidagi oʻrindiqqa deyarli mixlanib olib, na suhbatga, na ziyofatga aralashadi – yondafariga allanimalarni qoralaydi, oʻchiradi, tuzatadi, oʻylaydi, xullas, ilm manfaati uchun vaqt va joy tanlamasligi, mehnatsevarligi kishini hayratlantiradi. Konferensiyani yakunlab, Toshkentga qaytayapmiz hamki, yana shu ahvol: “Aka, qoʻying endi, qolganini uyda davom ettirarsiz” desak, shunchaki kulib qoʻyadi. Mana shunday fidoyi, samimiy, zahmatkash odam Ergash aka.

“Chin olim yostigʻin toshdin yaratdi”, deydi turkiy tasavvuf adabiyotining yirik vakili Ahmad Yassaviy. Darhaqiqat, Ergash Ochilov – hayotning past-u balandini koʻp koʻrgan, achchiq-chuchugini “xoʻb” totgan – qiyinchiliklar-u mashaqqatlarda uzoq toblangan, zuvalasi pishiq, irodasi mustahkam, matonatli inson. Uning zahmati ham, ammo ochigʻini aytish kerakki, omadi ham ilmdadir. Adabiyotshunos faoliyatiga boqib, haqiqiy olimning hayotiy qiyofasi qanday boʻlishi kerak, degan savolga oddiy va joʻn javob topish mumkin: bizningcha, aynan u kishiday boʻlishi kerak! Tasavvur ummonining toʻlqinlari aro umr sarhisobiga imkon topa bilgan odam oʻz qudrat-u quvvatini chamalab koʻrsa, baribir koʻp ishlarga turmush tashvishlari imkon bermasligi oʻz-oʻzidan ayonlashaveradi. Ichki bir afsus, oʻz-oʻzidan qoniqmaslikka oʻxshash nadomat hissi ruhiyatini, istasa-istamasa, kemiraveradi. Rosti, ayni shu oʻy-kechinmalar bizda Ergash akaning faoliyatiga, ilmiy merosiga havas nazari bilan boqish ishtiyoqini bir necha karra kuchaytirishi aniq. Darhaqiqat, olim 150 ga yaqin kitoblarni nashr qildi: monografiya, darslik, oʻquv qoʻllanma, tarjimalar, sharh-u tadbillar – turli-tuman, xilma-xil nashrlar, 1500 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqola, soʻzboshilar, sharh, tezislarni yozdi – gazeta, jurnallar, internet saytlari, ilmiy toʻplamlar, konferensiya materiallari jamlangan kitoblarda chop ettirdi. Olimning birgina “Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi”da 40 ga yaqin, “Alisher Navoiy: qo-

musiy lugʻat”iga 200 ga yaqin, “Alisher Navoiy ensiklopediyasi”ga 500 dan ortiq turli mavzularga oid maqolalari kiritilgani yuqoridagi fikrlarimizga yorqin isbotdir.

Ergash aka soʻzning “tili”ni biladi – kayfiyati, maromi, ohangini teran his qiladi – olim yaratgan tadqiqotlarda soʻzlar ifodada erkin, samimiy, tabiiy, hatto bir qadar “erkalanib” yuzaga chiqadi. Oʻquvchi ularni hech qayerda turtinmasdan, surinmasdan, zavq-u ishtiyoq bilan oʻqiydi. Yetuk adabiyotshunos boshqalar ilmda ilgari aytganni “boshqacharoq” aytish yoʻlidan sira bormaydi, yangilikka intiladi, ohorli tahlillar, oʻziga xos talqinlar asosida ilmiy kashfiyotlar ijod qiladi. Qisqalik, aniqlik, soddalik tamoyillari uning xos uslubini dalillaydi. Jumladan, olimning buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy ijodiyotiga doir tadqiqotlarini olaylik.

Ilm faqat tadqiq tamoyili asosida emas, targʻib-u tashviq mezonlari ham eʼtibordan soqit qilinmasagina, rivoj topib boraveradi. Shu maʼnoda, Ergash Ochilov Navoiy haqida nafaqat ilmiy, balki keng kitobxonlar ommasining qiziqish doirasini inobatga olib, ilmiy-ommabop nashrlarni ham amalga oshirdi. Olimning 200 sahifaga yaqin “Alisher Navoiy” risolasi(Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2013) fikrimizning yaqqol tasdigʻidir. Kitobda ulugʻ shoir tarjimai holi, faoliyati, ijodi, oʻzbek mumtoz adabiyotida tutgan oʻrni borasida tizimli tarzda, nihoyatda ravon bir uslubda bahs yuritilgan. Umuman, muayyan tadrijiylik asosida fikr mohiyatini atroflicha ochib berishga intilish va oʻquvchining diqqatini sira susaytirmasdan toʻxtovsiz mushohadaga undash uning tadqiqotlarining yorqin fazilatlarini koʻrsatib turadi. “Bir hovuch dur” (Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2011) risolasidagi Navoiy gʻazali sharhiga bagʻishlangan quyidagi parcha bunga bir misoldir:

Sunbuli rishtalarin rishtayi maqsud dema –

Kim, koʻngullar qushi domigʻa erur barcha sabab.

“Dunyo otligʻ maʼshuqa zulfining torlarini maqsadga yetkazadigan vosita bilan aldanma, – deb ogohlantiradi shoir, ularning har biri aslida koʻngillar qushini ovlash uchun bir tuzoqdir”.

Soch – tasavvuf sheʼriyatida moddiy dunyotimsoliboʻlibkeladi. Uninguzunligi–dunyoviy hoy-u havaslarning chek-chegarasizligiga, qalinligi – tirikchilik tashvishlarining son-sanoqsizligiga, halqaligi – nafs bandalari koʻnglini ovlash uchun tuzoqqa, qoraligi – oʻziga ergashganning qismatini qora qilishiga qiyoslanadi va hokazo. Sochning ilonga, ajdarga oʻxshatilishi ham uning ayni maʼnoda dunyoga nisbati borligidan kelib chiqqan. Mumtoz sheʼriyatda koʻp uchratadiganimiz – zulf asiri boʻlgan koʻngillarning maʼshuqa kulgichi chohiga tushganliklari haqidagi tashbehlar-da shundan dalolat beradi”. Olimning professor Ibrohim Haqqul bilan hammualliflikda nashr ettirgan, Navoiy gʻazallari sharhiga bagʻishlangan “Ishq va olam hayrati”(Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2016) kitobi ham oʻquvchilarda ana shunday yorqin taassurotlar paydo qiladi.

E.Ochilov Sharq adabiyotining oʻziga xos adabiy anʼanalari zahirida shakllangan, ammo adabiy taʼsir va tadrijiy-

lik mezonlari asosida yangicha talqinlar bilan oʻzbek mumtoz adabiyotini jahon soʻz sanʼatining beqiyos choʻqqisiga yuksaltirgan Alisher Navoiy adabiy merosi sarchashmalariga, xususan, Qurʼoni karim, Hadisi sharif va tasavvuf nazariyasiga katta eʼtibor qaratadi, fors-tojik adabiyotining ilgʻor xususiyatlari buyuk mutafakkir shoir sheʼriyatiga qay darajada taʼsir koʻrsatganini yorqin misollar vositasida atroflicha ochib beradi. Bu borada uning tojik va fors tillarini mukammal bilishi, qoʻlyozma va toshbosma manbalarni hech bir qiyinchiliksiz oʻqiy olishi, adabiy matn mazmuni, ijodkorning maqsad-muddaosini toʻla idrok qilib, tahlilda teranlikka, talqinda yangilikka intilishi koʻmak bergan, desak aslo xato boʻlmaydi. Olimning Bedil, Attor, Rumi, Hofiz, Jomiy kabi fors-tojik adabiyotining zabardast vakillari ijodi yuzasidan amalga oshirgan ilmiy ishlari, yozgan maqola va tezislari bu fikrlarimizni quvvatlaydi.

Qolaversa, E.Ochilovning olimligi muallimligida, muallimligi olimligida yaqqol aks etib turadi. U uzoq yillardan buyon Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida talabalarga tarjima shunoslik, tarjima nazariyasi sirlarini sidqidildan oʻrgatib, saboq berib keladi. Qachon qaramang, qoʻlida ichi kitoblarni bilan liq toʻlgan katta portfel, talabalariga koʻrsatish uchun uyidagi kutubxonasidan olib chiqqanini aytadi. Darsga, talabaga mehri boʻlakcha, doim universitet va institut orasida goh darsga, goh ishxonaga tomon shoshib kelib-ketayotganiga guvoh boʻlasiz. Olimning tarjimon sifatidagi faoliyati esa alohida bir tadqiqotga asos boʻla oladi. Fors, rus, ozarboyjon, turkman tillaridan qilgan 30 dan oshiq tarjima kitoblari oʻzbek adabiyoti xazinasini boyitibgina qolmay, dunyo xalqlari bilan oʻzaro adabiy aloqalarni yanada mustahkamlash uchun ham muhim hissa qoʻshmoqda.

E.Ochilovning ilm yoʻlidagi saʼy-harakatlari bejiz ketgan emas. U hukumatimiz tomonidan “Mehnat shuhrati” ordeniga munosib koʻrildi(2021). Turkman adabiyotini keng targʻib va tadqiq qilish bilan bogʻliq samarali ishlari uchun Turkmaniston Respublikasining xalqaro “Maxtumquli-Firogʻiy” medali sohibi boʻldi(2014).

Bugungi kunda u respublikamiz ilmiy salohiyatini yuksaltirishda, sohaga oid malakali kadrlar tayyorlashda ham jonbozlik koʻrsatmoqda. Ayni paytgacha uning rahbarligida 3 nafar filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori(PhD), yigirmaga yaqin magistrlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilindi.

Ergash Ochilov ilmiy-ijodiy faoliyati, aslida, bir emas, bir necha oʻnlab maqolaga materiallar beradi. Biz faqat olimga oʻz ehtiromimizni ifoda etishga urindik, xolos. Yaqinda taniqli adabiyotshunos muborak 60 yoshni qarshilaydi. Ilm karvonida sarbonlikni qoʻlga olayotgan chin olim uchun ayni balogʻat, yetuklik yoshi bu! Ergash akaga mustahkam sogʻlik, uzoq umr, ilmiy-pedagogik ishlarida rivoj tilab qolamiz!

Maqsud ASADOV,
OʻzR FA Oʻzbek tili,
adabiyoti va folklori instituti
direktor oʻrinbosari,
filologiya fanlari doktori, professor

Qutlov

“Har yerdaki soʻz koʻngilga maʼqul keldi”

(Yoki Ergash Ochilovning adabiy soʻzga sadoqati)



Ergash Ochilovni taniganimga oʻttiz yildan oshdi. Qachon, qayerda, qaysi vaziyatda tanishganimni, toʻgʻrisi, eslay olmadim. Ammo uni hamisha kitoblari orasida, ziyo ahli ichida, taʼlim mahali talabalar auditoriyasida, shuningdek, ilmiy anjumanlarda qatnashib yurgandek tasavvur qilaman. Bu tasavvurda yolgʻon, mubolagʻa, toʻqima yoʻq. Zero, Ergash Ochilov umrining eng fayzli damlarini ilmga bagʻishladi, pedagoglik qildi; “Oʻzbek tili va adabiyoti” jurnali nashrining masʼulligini zimmasiga oldi. Turli toifadagi mualliflarning jurnalga kelgan har xil maqolalari tahriri bilan mashgʻul boʻldi. Tabiiyki, kelgan maqolalar orasida nashrga arziydiganlari bor. Imlodan imloga tabdil qilingan, usluban oʻzgartirib koʻchilganlari, ilmiy jihatdan betob va saktalari ham yoʻq emas, afsus. Jurnal tahrir hayʼati aʼzosi boʻlganim uchun Ergash Ochilov ora-sira ularni menga ham taqriz uchun yuboradi. Oʻqiyman, qarayman, fikrimni yozib, qayta yuboraman. Bu hamkorlikka ham besh-olti yildan oshdi. Ergash soha mutaxassisi fikrini qadrlaydigan, asosli fikrni ortiqcha gap-soʻzsiz inobatga oladigan olim; jurnal darajasi har jihatdan baland saviyada boʻlishi uchun jiddiy harakat qiladi; yosh olimlarga oʻz mashqlari ustida qunt bilan ishlash usullari boʻyicha yoʻl-yoʻriqlar koʻrsatadi.

Ergash Ochilov ulugʻlar maktabida taʼlim oldi. OʻzR FA – bu muhtasham ilm maskani. Bu dargohda ne-ne allomalar ishladi, kitoblari yozib, munosib fikr tarqatdi; shogirdlar tarbiyaladi. Ustozlari ishini munosib davom ettirayotgan sadoqatli shogirdlar orasida Ergash Ochilovning oʻrni alohida, menimcha. Agar ustoz olimlardan birortasi nomi tilga olingudek boʻlsa, Ergash xotiralarga beriladi. Suhbatlarini eslab, lozim boʻlsa, biror hikmati yoki hazili qachon qaysi kun va qay bir anjumanda boʻlganigacha aniq aytib bera oladi. Chunki Ergashning oʻzi eʼtirof etganidek, hayotidagi muhim voqealarni yozib boradigan kundalik daftar, yondaftarlari bor. Safarda – samolyotdami yo avtoulavda bu yozuvlarning yozilish jarayoniga oʻzim ham guvoh boʻlganman. Kundaliklardan olingan hangomalaridan bir qismini Ergash ikki marta ommaga taqdim etdi. Biri – professor Boqijon Toʻxliyev toʻgʻrisida kichik bir risola. Ikkinchisi, akademik Baxtiyor Nazarov haqida yozganlaridan bir qismi bosildi.

Ergash Ochilov sinchkov adabiyotshunos. Tarixiy davrlarni, adabiy shaxsiyatlarni, durdona asarlar mohiyatini yaxshi biladi. Shu bilimiga mos ravishda adabiy maqolalar yozdi. Ergash Ochilovning adabiy maqolalari jamlangan “Barhayot siymolar” kitobini oʻqidim. Ular shunchaki yozilgan emas; mavzu ustida jiddiy ishlagani va izlangani fikr bayoni, taqqos va iqtiboslaridan sezilib turadi. Bunday usul oʻrtaga qoʻyilgan masalaning tub ildizini ochishga yordam beradi. Kitobdagi

“Layli sheʼriyatning Majnun shoiri” maqolasiga nazar tashladim. Maqola Fuzuliy toʻgʻrisida. Ozarboyjon shoirining butun hayoti va ijodiga xos xususiyatlar qamrab olinar ekan, adabiy merosining qamrovini “devonida 300 ga yaqin gʻazal, 75 ruboiy, 42 qitʼa” va boshqa mumtoz janr namunalari borligi xususida statistik maʼlumot beradi. Fuzuliyning qasidanavis ekanini taʼkidlab: “shoirning turkiy devonida 27, forsiy devonida 46, arabiy devonida 12 qasida mavjud”, deb qoʻshimcha qiladi. Oʻz vaqtida jadid munaqqidi Vadud Mahmud Fuzuliy hayoti va ijodiga murojaat qilib, shoirning har uchala tilda birdek sheʼr yoza olish qobiliyatini esga olgan edi. Sharqda ikki tilda yozadigan shoirlar,

odatda, zullisonayn deyiladi. Uch tilda ijod qiladiganlariga biror atama qoʻllandimikan, deb oʻylanib qoldim, toʻgʻrisi. Agar arabcha atama boʻlsa uch tilda baravar ijod qiladigan shoir “zusalasati-alsina” (uch til egasi) deb nomlansa kerak, ehtimol. Darvoqe, Ergash Ochilov Fuzuliydan taʼsirlangan mumtoz oʻzbek shoirilarini bir-bir esga olgandan keyin masalaning adabiy zanjirini zamonamizgacha olib kelib bogʻlaydi. Abdulla Qodiriy qahramonlarining shoir ijodiga oshuftaligi esdan chiqmaydi. “Fuzuliyning oldim qoʻlimga, Majnun boʻlib yigʻlab qichqirdi” (H.Olimjon), “Bir lahza qoʻlidan qoʻyganmi oʻzbek, Oʻzing ayt, Fuzuliy bitgan devonini” (A.Oripov) yoki “Mening shoirligim yolgʻondir, ammo Fuzuliy sheʼriga oshiqligim rost” (E.Vohidov) kabi misralar beixtiyor tadqiqotchi xayolida jonlanadi, albatta.

Shu bilan birga, Ergash Ochilov shoir olamini anglashning adabiy-nazariy, diniy-tasavvufiy ochiqchilarini ham taqdim etadi. “Fuzuliy mutasavvuf shoir boʻlgan. Shoir sheʼriyatini tasavvufdan ajratib olib oʻrganish mumkin emas”(328-bet). Darhaqiqat, mumtoz sharq shoirilarini tasavvufdan, islom dini ahkomlaridan alohida oʻrganib boʻlmaydi. Shoʻro zamoni talqinlaridan farqli oʻlaroq bu haqiqatni bugun ochiq aytib yozish imkoni bor. Adabiyotshunos olimlarning bu imkoniyatdan emin-erkin foydalanayotganlariga ham oʻttiz yildan oshdi. Quvonarlisi, bu toifa olimlar safi kengayib bormoqda.

Ergash Ochilov ham zarur oʻrinlarda mumtoz adabiyotga doir talqinlarini diniy-tasavvufiy tushunchalarga bogʻlab yozmoqda. Oʻrni-oʻrni bilan oyat va hadislariga murojaat qiladi.

Sulaymon Boqirgʻoniyni ijodini, xususan:

“Asʼhobi kahf itini Haq taolo qoʻymadi,
Olloh degan qulini hargiz navmid qoʻyarmu?”

kabi misralarini Qurʼoniy qissalar, deylik, “Kahf” surasi voqealari orqali sharhlash eng toʻgʻri yoʻl ekanini Ergash Ochilov yaxshi biladi (136-137-bet).

“Navoiyning nazari tushgan avliyo” – Xoja Abulvaf Xorazmiy haqida yozgan maqolasida shoir ruboiylaridan birini keltiradi:

Koʻngil. Nima topdi ishqdan aqli salim?
Men – Xizri zamon, sen esa – Musoyi kalim.
Olmoq esa orzu suhbatimdan bahra
Bildirma-yu eʼtiroz, koʻrsat taslim.

Sharhida yozadi: “Bu ruboiylarning ayrimlarini tasavvufiy istiloh-timsollar emas, balki diniy va tasavvufiy rivoyat-hikoyatlar yordamida ham tushuntirish

mumkin. Chunonchi, ayni ruboiyni Qurʼoni karimda-gi Xizr alayhissalom va Muso paygʻambar sayohati orqali sharhlash lozim”, deb oʻz qarashlari uchun Qurʼoni karim oyatlar tarjimai va sharhiga murojaat qiladi (315-bet).

Toʻgʻrisi, keyingi yillarda adabiy talqin va tahlil usullari bilan mashgʻul boʻlganim uchun, odatda, anʼanaviy metodlardan koʻra, yangilariga yoki hodi-saning oʻzi mavjud boʻlib, hali ularga nom qoʻyilmaganlariga qiziqib yuraman. Shu eʼtibordan Ergash Ochilovning diniy-tasavvufiy tahlil usullari yoʻsini-da yozganlariga alohida eʼtibor berdim. Ular mumtoz adabiyotga bogʻliq ravishda baʼzan tafsilotlari bilan ayrim maqolalarining juzʼiy oʻrinlarida uchraydi.

Ergash Ochilov Maxtumquli ijodining bilimdoni, va eng muhimi, ixlosmand tarjimoni. Xizmatlari evaziga Turkmaniston hukumati tomonidan 2014-yili Maxtumquli medali bilan taqdirlandi. Ergashning tarjimasida Maxtumquli sheʼrlari muhtasham hajmda bir necha marta kitob boʻlib bosildi. Tilni bilib tarjima yaqiniga yoʻlamaganlar tanqid ham qilishdi. Ergash Ochilov ularga tabiiy munosabatda boʻldi. Chunki ishlagan odam muvaffaqiyatga erishadi, ayni damda juzʼiy xato qilish ham mumkin. Xolisnazar inson pashshadan fil yasamaydi. Ergash Ochilov Maxtumquli sheʼrlari tarjimai jarayonida bergan izoh, sharhlarining oʻzi bir dunyo. Ular ham Maxtumquli hazratlarining adabiy olami, ustuvor dunyoqarashiga daxldor tushunchalardir.

Shu eʼtibordan Ergash Ochilov – yaxshi tarjimon. Turli tillardan, koʻpincha fors tilidan tarjimalari bor. Xususan, “Ming bir ruboiy” kitobini koʻrdim. 858-yili tavallud topgan Rudakiydan tortib, 1859-yilda tugʻilgan Shamsiddin Shohingacha – roppa-rosa ming bir yillik ruboiylarning tarjimalari jamlanibdi. Bu katta mehnat. Nomi ham shu sanalarga munosib. Ular orasida Ibn Sining ruboiysida shunday bir misra bor: “Har yerdaki soʻz koʻngilga maʼqul keldi”. Ergash Ochilov salkam qirq yildan beri koʻngliga maʼqul kelgan zavqli bir ish bilan mashgʻul. Jumladan, ruboiy janriga ixlosi boshqacha, shu bois ayni yoʻnalishdagi tadqiq va tarjimalari koʻp. Oʻz eʼtiroficha “150 ga yaqin forsiy zabon shoirning 5000 dan ortiq ruboiysini oʻzbekchalashtirgan” ekan. Bunday adabiy xizmatlar oʻz-oʻzidan boʻlmaydi.

Odamning kimligi safarda bilinadi. Ergash Ochilov bilan birga ikki marta Ashxobod yoʻlida hamsafar boʻldim. Qaysi bir muhitga bormasin, Ergashning tevaragida ilm ahli jamlanadi. Bular turkiyalik, eronlik, ozarboyjonlik, rossiyalik yoshi katta va kichik olimlar. Ergash ularning barchasi bilan birdek samimiy, ilm-fan, tarjimalar, hayot xususida gaplashadi; bir zumda adabiyot tilida dil topishadi.

Tabiatan birov koʻngliga ozor beradigan odam emas. Mabodo bahs-munozara boʻlsa, “Hay, sizniki toʻgʻri boʻlishi mumkin, lekin men bunday oʻylayman” yoki “Men fikrimda qolaman”, deganicha oʻz qatʼiyatini bayon qiladi.

Shu bilan gapim tuganchiga yetgandek boʻldi. Oʻylab qaragam, Ergash Ochilov ilmiy-ijodiy faoliyatining yana bir qirrasini bor ekan. Yaʼni u nashriyotlar bilan hamkorlik qiladi. “Hikoyat va rivoyatlar olami” rukni-da tayyorlagan “Ramzlar silsilasi”, “Maʼrifat daftar”, “Donolar suhbat” kabi qator sovgʻabop ixcham kitoblari koʻpming nuxxada nashrdan chiqdi. Bir sahifada: “Salomat boʻlish va xotirjam yashash – eng yaxshi yashash. Lekin yaxshi nom qoldirish abadiy yashashdir”, degan hikmatni oʻqidim. Ilm zahmatkashi, sermahsul olim va tarjimon Ergash Ochilovga shunday fayzli umr va shunday baland martaba tilayman.

Bahodir KARIM,
professor

Ta'kid

Kompyuter o'rgatadi, ammo tarbiyalay olmaydi



Hozirgi kunda o'qituvchilik yanada mas'uliyatli va og'ir kasblardan biriga aylanib qoldi. Har kuni o'nlab dars, yuzlab daftar, hisobot, har yili yangi tizim, yangi platforma, yangi talablar... Ammo o'qituvchining o'zi uchun sharoit, e'tibor va vaqt yetarli emas. U dars berishdan tashqari, turli hisobotlar, onlayn baholash tizimi, elektron kundaliklar bilan band. Buning natijasida o'qituvchi uchun eng muhim narsa bo'lgan ijodkorlik va kasbga mehr so'nib borayotgandek tuyuladi.

Bu o'qituvchilarning aybi emas. Chunki dunyo o'zgaryapti, ta'lim esa shu o'zgarishning markazida turibdi. Raqamli texnologiyalar bizga yangi imkoniyatlar berdi: onlayn darslar, sun'iy intellekt yordamida o'qitish, masofaviy ta'lim, interaktiv platformalar... Ammo bu yangiliklarning o'ziga yarasha manfiy tomonlari ham bor. O'quvchi uchun internet – bilim manbasi bo'lishi kerak edi, ammo ko'p hollarda u chalqituvchi omilga aylandi. “TikTok”, “Instagram” kabi ijtimoiy tarmoqlar va turli internet o'yinlari yoshlarning diqqatini kitobdan uzoqlashtirmoqda.

Raqamli dunyo tezkor o'ylashga o'rgatyapti, chuqur fikrlashga emas. Axborot ko'p, ammo tahlil kam. Shuning uchun bugungi yoshlar ko'p narsani

biladi, biroq oz narsani his qiladi. Ular uchun ko'p hollarda “bilim olish” emas, “ko'rinish berish” muhim bo'lib qoldi. Bu esa jamiyatimizda yuzaki fikrlovchi, oson taslim bo'ladigan yoshlarning ko'payishiga olib kelmoqda.

Bu jarayonda ota-onalarning ham o'rni muhim. Afsuski, ko'pchilik farzandining o'qishini faqat darslarda olgan ballari orqali baholaydi. “5” – yaxshi, “3” – yomon. Bilimni faqat raqamlar bilan o'lchab bo'lmasligi barchamizga ma'lum. Bola nechchi baho olmasin, o'qishni, izlanishni, tahlil qilishni yaxshi o'rganmasa, unga kelajakda hech qanday texnologiya yordam bera olmaydi. Ota-ona farzandining faqat telefonini emas, tafakkurini kuzatishi kerak. O'qituvchi esa har bir o'quvchining orzularini ko'ra

olishi, unga ishonch bildirishi lozim. Chunki bugungi o'quvchilar ko'p hollarda o'qishga emas, natijaga intiladi. Ular “Nega o'qishim kerak?” degan savol bilan yashaydi. Bu savolga javob berish esa o'qituvchining eng muhim vazifasidir. O'qituvchi darsda hayotiy misollar keltirib, o'quvchiga bilimning amaliy qiymatini ko'rsatishi lozim. Faqat shunda yoshlar bilim orqali hayotini o'zgartirishga ishona boshlaydi.

Ta'lim tizimidagi yana bir og'riqli masala – o'qituvchining o'zi kimdan o'rganadi? Har yili yangi islohot, yangi standart, yangi baholash tizimi kiradi, lekin o'qituvchilarni unga tayyorlash uchun tizimli dastur har doim ham yo'q. Ko'p o'qituvchilar mustaqil o'rganishga majbur bo'ladi: “YouTube”dagi videolar, “Telegram”dagi kanallar, onlayn kurslar orqali bilimini oshiradi. Bu esa, tabiiyki, yetarli emas. O'qituvchi uchun muntazam o'qish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish, tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish zarur.

Raqamli texnologiyalar o'qituvchining o'rnini bosmaydi. “ChatGPT” kabi sun'iy intellektlar yordamchi vositalar xolos. Kompyuter bilim beradi,

lekin tarbiya bermaydi. Internet yo'l ko'rsatadi, ruh bermaydi. Shuning uchun ta'limdagi eng muhim omil – insoniylik, samimiyat va muloqotdir. O'qituvchining yuragida ishonch va muhabbat bo'lmasa, eng zamonaviy texnologiyalar ham foyda bermaydi. Chunki ta'lim – bu insondan insonga o'tadigan nur. O'qituvchi faqat bilim emas, hayot saboqlarini, to'g'ri yo'l, toza niyatni ham o'rgatadi.

Bugun ta'limdagi barcha o'zgarishlar aslida bitta maqsadga – yoshlarni o'ylaydigan, izlanadigan, ijtimoiy mas'uliyatli insonlar qilib tarbiyalashga xizmat qilishi kerak. O'qituvchiga e'tibor – bu jamiyatga e'tibor. O'qituvchining qadri – bilimning qadrini belgilaydi. Agar biz o'qituvchiga sharoit, ishonch va hurmat bersak, u jamiyatga bilim, ma'rifat va insoniylik beradi.

Shunday ekan, ta'lim tizimini isloh qilish degani – avvalo, o'qituvchini qo'llab-quvvatlash, yoshlarning tafakkurini ochish va raqamli dunyoda insoniylikni saqlab qolish demakdir.

Dildora O'SAROVA,
TDYU “Xorijiy tillar” kafedrasida
katta o'qituvchisi

Jarayon

Oliy ta'limda axborot-resurs markazining o'rne



Bugun yoshlarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi hamda o'quv manbalariga ehtiyoj darajasi ortib bormoqda. Axborot-resurs markazlari aynan shunday sharoitda oliy ta'lim muassasasining o'quv-ilmiiy ekotizimida tayanch bo'lg'in bo'lib xizmat qiladi. Ular:

- ✓ axborotga erkin kirish imkoniyatini yaratadi;
- ✓ zarur resurslarni tezkor taqdim etadi;
- ✓ talabalarda mustaqil izlanish va tanqidiy fikrlash madaniyatini shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida”gi qonuni shu vazifalarni aniq belgilab qo'ygan: foydalanuvchining axborotdan erkin foydalanish huquqini kafolatlash, ta'lim va ilm-fan ehtiyojlariga mos resurslar bilan uzluksiz ta'minlash, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish. Shu bilan ARM nafaqat fond saqlovchi inshoot, balki ta'lim sifati va talaba muvaffaqiyati bilan bevosita bog'langan dinamik markaz sifatida maydonga chiqadi.

Davlat siyosatida ham aynan shu yo'nalish ustuvor. Yoshlarga oid davlat siyosati oliy ta'lim tizimida talabalarning kitobxonligini kengaytirish, axborot-resurs muhitini zamonaviylashtirish, fondlarni boyitish va universitet kutubxonalari yoshlar uchun jozibador bilim maydoniga aylantirish bo'yicha aniq vazifalarni ilgari surmoqda.

Universitet hayotida ARMning roli talaba intizomi va motivatsiyasida yaqqol namoyon bo'ladi. Talabaning kurs ishi yoki bitiruv loyihasi sifatli manbalar bilan ta'minlanmasa, o'qishdagi natija ham past bo'lishi tabiiy. Shuning uchun ARMlar elektron bazalar, bosma nashrlar, ochiq ta'lim resurslari va multimedia kontentini uyg'unlashtirib, tezkor izlash, bibliografik maslahat va ma'lumot bilan ishlash bo'yicha yo'naltirish xizmatlarini yo'lga qo'yadi. Bu jarayon negizida axborot savodxonligi turadi: ishon-

chli manbani tanish, iqtiboslash madaniyati, plagiatdan qochish va dalilga tayangan fikr bildirish ko'nikmalari endi har bir talaba uchun zarur kompetensiyaga aylangan. ARM ana shu kompetensiyani real vazifalar orqali mustahkamlaydi.

Yoshlar auditoriyasiga samarali yetib borishi uchun “tengdosh tili” alohida ahamiyatga ega. Shu bois, universitet ARMlarida volontyorlar xizmati yo'lga qo'yilishi dolzarbdir: volontyor talabalar tengdoshlariga ularga yaqin, sodda va samimiy uslubda yangi kitoblar haqida qisqa taqdimotlar qiladi, o'qishga undovchi “book-talk”lar o'tkazadi, mashhur yozuvchi va adiblar hayoti hamda ijodiga oid ixcham videoroliklar tayyorlaydi. Bunday faoliyat bir tomondan, tinglovchi talabalar uchun motivatsiya manbasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, volontyorning o'zi tashkilotchilik, jamoaviy ishlash va taqdimotchilik malakasini rivojlantiradi. Natijada ARM atrofida jonli o'qish muhitining shakllanishi – o'qish klublari, mavzuli uchrashuvlar, savol-javob kechalari, muallif bilan muloqot kabi tadbirlar kitobga bo'lgan qiziqishni barqaror tarzda kuchaytiradi.

Universitet ARMlaridagi eng samarali tashabbuslardan biri – “BookCrossing” loyihasi. Bu g'oya oddiy, ammo ta'sirchan: talaba o'qigan kitobini javonga qo'yadi va o'rniga boshqasini oladi. Erkin almashinuv, erkin fikr va erkin o'qish tamoyillari bir nuqtada to'planadi. “BookCrossing” javonlarida 200 dan ortiq badiiy va publitsistik asarlar bo'lishi talabalarning qiziqishini yanada kuchaytiradi: o'qiganini boshqalar bilan bo'lishadi, tavsiyalar almashadi, muhokamalar boshlanadi – shu tariqa o'quv jarayonining yashil zonasida haqiqiy kommunikativ hamjamiyat shakllanadi. Loyihaning iqtisodiy tomoni ham bor: talaba muallif bilan tanishadi, kitobni sotib olmasdan o'qiydi, o'qiganini boshqalar bilan bo'lishadi; bu esa fond aylanishini tezlashtiradi, resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi.

Zamonaviy ARM xizmatlari faqat kitob berish bilan cheklanmaydi. Ma'lumotlar bazalaridan foydalanish bo'yicha qisqa modul-treninglar, referat va kurs ishlari

uchun manba tanlashga ko'maklashadigan konsultatsiyalar, iqtiboslash va bibliografik yozuv standartlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'quv jarayoniga bevosita qo'shib boriladi. Samaradorlikni boshqarish uchun ARMda monitoring va tahlil tizimi yo'lga qo'yilishi lozim: “BookCrossing”dagi aylanish tezligi, o'qish klubi qatnashchilarining dinamikasi, elektron resurslarga kirishlar, konsultatsiyalar statistikasi, ijtimoiy tarmoqlardagi qamrov – bularning barchasi boshqaruv qarorlarini dalillarga tayangan holda qabul qilishga xizmat qiladi. Talaba fikrini muntazam o'rganish – qisqa so'rovlar, ochiq izohlar, takliflar xizmatlarni moslashtirishga yordam beradi. Kontent siyosati ham shunga yarasha yangilanadi: trenddagi badiiy janrlar, kasbiy-adabiy manbalar, motivatsion asarlar o'rta-sida muvozanat saqlanadi. Kafedralar bilan hamkorlik esa ARM tashabbuslarini ta'lim rejalariga biriktiradi – ayrim kurslarda “manbaga tayangan topshiriq” alohida band bo'lib, baholash mezonida manba sifati va iqtiboslash madaniyati e'tiborga olinadi. Shuningdek, hamkor tashkilotlar sonining ortishi – nashriyotlar, madaniy markazlar, ijodiy uyushmalar bilan qo'shma tadbirlar talabalarga kengroq madaniy ufq ochadi.

Mana shunday sa'y-harakatlar natijasida, birinchidan, kitobxonlik ko'lami kengayadi: “BookCrossing” aylanishi, o'qish klubi ishtiroki, ijaraga olingan kitoblar soni o'sadi. Ikkinchidan, axborot savodxonligi mustahkamlanadi: talaba ishonchli manbani farqlaydi, iqtiboslashga e'tiborli bo'ladi, plagiatdan tiyiladi, yozuv sifati yaxshilanadi. Uchinchidan, motivatsiya oshadi: bo'sh vaqt mazmunli o'tadi, fanlararo qiziqish kuchayadi, ijodiy tashabbuslar paydo bo'ladi. To'rtinchidan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, xususan, “Yoshlar daftari” orqali ta'lim, bandlik va tadbirkorlik imkoniyatlari kengayib, ARMning o'quv-kasbiy yo'naltirishdagi roli mustahkamlanadi.

Shamsiya SHARIPOVA,
TDYU Axborot-resurs markazi yetakchi mutaxassisi,
Zilola TOLIPOVA,
TDYU Axborot-resurs markazi II toifali kutubxonachisi



Siz nima deysiz?

Madaniyat texnologiyadan ustun



Jamiyat rivojlanib, insoniyatning turmush tarzi yuksalgani sari iste'mol va unga bog'liq munosabatlar ham yangicha mazmun va shakl kasb etib boradi. Shiddat bilan o'zgarayotgan davr, global iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslarning tobora o'lchovli bo'lib borayotgani butun jamiyatimiz oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'yimoqda. Endi iste'molchi huquqlarini talab qilish bilan birga, majburiyatlarini ham chuqur anglashi, iste'mol madaniyatining yangi, yanada mas'uliyatli bosqichiga qadam qo'yishi hayotiy zaruratga aylandi.

Gap shundaki, bugun nafaqat sotib olayotgan mahsulotimizning sifati, balki uning ortida turgan ulkan resurslar – suv, elektr energiyasi, gaz, inson mehnati haqida ham qayg'uradigan payt keldi. Tejamkorlik endi faqat oila budjetini iqtisod qilish vositasi emas, balki davlatning strategik manfaatlarini, milliy xavfsizlik va kelajak avlod oldidagi muqaddas burch sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Bizga berilgan ne'matlar cheksiz emasligini tan olish va ularni asrab-avaylash har bir iste'molchining vijdon ishiga, yuksak madaniyat belgisiga aylanishi lozim. Bu davrning keskin talabi, taraqqiyotning muqarrar sharti bo'lib borayotir.

Afsuski, ko'pchilik orasida hali ham “pulini to'layapman-ku, xohlaganim-cha ishlataman”, degan yanglish va o'ta xatarli fikr saqlanib qolgan. Bunday yondashuv o'z mohiyati bilan nafaqat iqtisodiy mantiqqa, balki oddiy insoniy adolatga ham ziddir. Chunki siz foydalanayotgan har bir kilovatt elektr energiyasi, har bir tomchi suv umumiy tizimning, butun bir xalqqa tegishli murakkab infrazuzilmaning bir qismidir. Buni yaxshiroq anglash uchun oddiy hayotiy misolni ko'rib chiqaylik.

Tasavvur qiling, mahalladagi xonadonlardan biri elektr energiyasidan yashirinch, belgilangan me'yordan bir necha barobar ortiqcha foydalanmoqda. Masalan, katta ishlab chiqarish sexini yoki yuqori quvvatli bir necha isitish uskunasi noqonuniy ulab olgan. Buning oqibati nima bo'ladi? Mahallaga o'rnatilgan transformator muayyan quvvatga mo'ljallangan. U rejadagi yuklamani ko'taradi, lekin yashirinch, hisobga olinmagan o'ta yuqori iste'mol tufayli zo'riqa boshlaydi. Oxir-oqibat transformator ishdan chiqadi va butun mahalla zulmatda qoladi. Endi tahlil qilaylik: bir kishining xudbinligi, o'ylamay bosgan qadami tufayli yuzlab oilalar jabr ko'rdi. Kechqurun darsini qila olmayotgan bolalar, sovuqda qolgan oila a'zolari, ishi to'xtab, zarar ko'rayotgan tadbirkorlar – bularning barchasi o'sha “uddaburon”ning xatti-harakati oqibatidir. U shu yo'l bilan topgan arziyasini foydasi evaziga atrofidagilarga katta zarar yetkazdi. Bu holatda uning “pulini to'layapman”, degan da'vosi o'rinsiz, chunki taqsimot tizimi bunday suiiste'molchilikka mo'ljallanmagan.

Muammoni boshqa hayotiy misollar orqali ham yaqqol ko'rish mumkin. Shahardagi ko'p qavatli uyda yashaydigan bir kishi soatlab jo'mrakni ochib qo'yib, mashinasini yuvsa yoki hovlisidagi kichik gulzorga minglab litr suv oqizsa nima yuz beradi? Yuqori qavatlarida suv

bosimi keskin tushib ketadi, ba'zan esa butunlay to'xtaydi. O'sha payti boshqa bir xonadonda kimdir bir piyola choy qaynatishga yoki chaqalog'ini cho'miltirishga suv topolmay o'tirgan bo'ladi. Bir kishining isrofi butun bir uy ahlining halovatini buzadi. Kengroq miqyosda olib qarasa, bugun Orol fojiasi, daryolari-mizning qurib borayotgani kabi global muammolar qarshisida turgan bir paytda har bir tomchi suvni oltinga tenglash-tirish, uni tejab ishlatish har birimizning insoniy burchimizga aylanishi kerak.

Tabiiy gaz masalasi ham shunday. Qishning sovuq kunlari uyini isitish maqsadida gaz plitasini soatlab yoqib qo'yadiganlar yo'q emas, afsuski. Bu nafaqat umumiy tizimga og'irlik qiladi, uzoq hududlarda gaz bosimi pasayishiga olib keladi, balki inson hayoti uchun o'ta xavfli vaziyatni ham yuzaga keltiradi. Bunday holatlar fojia bilan yakunlanishi ham mumkin. Demak, mas'uliyatsiz iste'mol nafaqat iqtisodiy zarar, balki

insonlar sog'ligi va hayotiga ham tahdid soladi.

Iste'mol madaniyati faqat kommunal xizmatlar bilan cheklanib qolmaydi. Oziq-ovqat isrofgarchiligi bugungi kunning eng og'riqli masalalaridan biri. Ayniqsa, dabdabali to'y-ma'rakalarda, katta tadbirlarda uvol bo'layotgan noz-ne'matlarning hisobi yo'q. Vaholanki, o'sha yeguliklarni yetishtirish uchun qancha suv, qancha energiya, qancha mehnat sarflangan. Birgina non dasturxonga yetib kelgunicha qanchadan qancha insonlarning peshona teri to'kiladi. Shunday ekan, oziq-ovqatni qadrlamaslik dehqon mehnatini, tabiat in'omlarini va, eng asosiysi, rizqning o'zini qadrlamaslik demakdir.

Mazkur muammolarning yana bir muhim jihati isrofgarchilikning davlat iqtisodiyotiga yetkazadigan bevosita va bilvosita zararidir. Har bir tejalgan kilovatt elektr energiyasi yoki kub metr gaz shunchaki raqam emas. Bu davlat budjetiga tushadigan og'ir yukning yengillashi, yangi elektr stansiyalari yoki gaz quvurlarini qurishga sarflanishi mumkin bo'lgan milliardlab mablag'ning iqtisod qilinishi demakdir. Tejalgan mablag'ni esa yangi maktablar, shifoxonalar qurishga, yo'llarni ta'mirlashga, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga yo'naltirish mumkin. Demak, bir xonadondagi tejamkorlik butun mamlakatning investitsion salohiyati, taraqqiyot sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan muhim omil

bo'lib xizmat qiladi. Aksincha, ommaviy isrofgarchilik davlatni doimiy ravishda eskirgan infratuzilmani yamashga, yangi va qimmatbaho inshootlarni qurishga majbur qiladi, bu esa ijtimoiy sohalarga yo'naltirilishi kerak bo'lgan moliyaviy resurslarni “yutib” yuboradi.

Shu o'rinda tejamkorlik madaniyatini shakllantirishda oila va ta'lim tizimining o'rni beqiyos ekanini alohida ta'kidlash joiz. Farzandiga yoshligidan suvni behuda oqizmaslik, chiroqni o'chirib yurish, non ushug'ini ham qadrlashni o'rgatgan ota-ona aslida bola ongiga Vatanga, uning boyliklariga mehr va mas'uliyat hissini singdirayotgan bo'ladi. Maktablarda esa bu boradagi bilimlarni nazariy va amaliy jihatdan mustahkamlash, ekologiya darslari, maxsus treninglar orqali o'quvchilarda resurslarning qadri va ularni asrashning global ahamiyati haqida aniq tasavvurlarni shakllantirish lozim. Ongida tejamkorlik fazilat emas, balki zarurat ekani muhrlangan avlodgina kelajakda barqaror va farovon jamiyat qura oladi.

Albatta, zamonaviy texnologiyalar ham bu borada bizga katta yordamchi bo'lishi mumkin. “Aqlli” hisoblagichlar, suvni tejaydigan jo'mraklar, energiya tejamkor maishiy texnika – bularning barchasi resurslarni oqilona sarflashga ko'maklashadi. Biroq unutmaslik kerakki, eng ilg'or texnologiyalar ham inson omilisiz, ya'ni mas'uliyatli iste'molchisiz kutilgan samarani bermaydi. Texnologiya – vosita, asosiy yechim esa har birimizning tafakkurimiz, dunyoqarashimizning o'zgarishidir. Madaniyat texnologiyadan ustun turadi, chunki aynan u texnologiyadan qanday foydalanishni belgilab beradi.

Bu borada jamiyatimizning o'ziga xos va qudratli ustuni bo'lgan mahalla institutining o'rni va rolini alohida e'tirof etish zarur. Mahalla nafaqat ma'muriy birlik, balki o'zaro ijtimoiy nazorat, hamjihatlik va marifat o'chog'i hamdir. Mahalla raislari, oqsoqollar va faollar aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borish, tejamkorlikning afzalliklarini hayotiy misollar bilan ko'rsatish, isrofgarchilikka yo'l qo'yayotgan xonadonlar bilan yakka tartibda suhbatlashish orqali katta natijalarga erishishi mumkin. Zero, ba'zan mutasaddi tashkilotning rasmiy talabidan ko'ra, yoshi ulug' qo'shnining samimiy nasihati yoki mahalladoshlarning do'stona tanbehi ko'proq ta'sir o'tkazadi. Bu, o'z navbatida, qo'shnichilik burchini mustahkamlab, umumiy boylik uchun jamoaviy mas'uliyatni shakllantiradi.

Xulosa shuki, iste'molchilik tafakkurini tubdan o'zgartirish vaqti allaqachon yetib keldi. Huquqni talab qilishdan mushtarak mas'uliyatni his qilishga o'tishimiz kerak. Har bir iste'molchi o'zi foydalanayotgan ne'matga faqat shaxsiy mulki sifatida emas, balki kelajak avlodlardan olingan omonat sifatida qarashni o'rganmog'i darkor. Bugungi tejamkorlik – ertangi farovonlik va barqarorlik garovi.

Gulnoza NURTOYEVA,
Jizzax viloyati Iste'molchilar
huquqlarini himoya qilish
jamiyatlari hududiy birlashmasi raisi

Bu muhim

Milliy identiklik va global dunyoqarash

Bugungi tezkor zamonda yoshlarning dunyoqarashi, ma'naviyati va tafakkuri ham global, ham milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashib bormoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlarni ma'naviy barkamol, milliy g'urur va o'zligini anglaydigan, shu bilan birga, zamonaviy bilim va innovatsion tafakkur bilan qurollangan avlod sifatida tarbiyalash ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Milliy identiklik deganda yoshlarning o'z tarixi, tili va adabiyoti, qadriyatlari va urf-odatlarini chuqur bilishi va ularni e'zozlab yashashi tushuniladi. Bunda ta'lim muassasalaridagi muhit, adabiy-ma'naviy tadbirlar va kitobxonlik jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, buyuk ajdodlarimiz – Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning asarlarini o'rganish yoshlar ongida milliy g'ururni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, zamon talabiga mos ravishda global dunyoqarashga ega bo'lish ham zarur.

Bugunning yoshlari chet tillarini o'rganmoqda, zamonaviy texnologiyalarni egallamoqda, xalqaro tajribalarni amaliyotda qo'llamoqda. Bu ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi, ilmiy izlanishlar qilishi, iqtisodiy va madaniy sohalarida raqobatbardosh bo'lishiga imkon yaratadi. Biroq global qadriyatlarni qabul qilish, milliy ildizlardan uzilish xavfini tug'diradi. Faqat milliylik bilan cheklanib qolish esa zamon bilan hamnafas bo'lishga to'sqinlik qiladi. Shu bois, eng muhim vazifa – milliy identiklik va global dunyoqarashni uyg'unlashtirishdir. Yoshlarimizni “Milliy o'zlikdan – jahon sivilizatsiyasiga” tamoyili asosida tarbiyalash lozim.

Yangi O'zbekiston yoshlari – milliy o'zligiga sodiq, shu bilan birga, jahon tamadunidan boxabar, keng dunyoqarashli avlod bo'lishi zarur. Milliy identiklik ularning ma'naviy poydevorini mustahkamlaydi, global dunyoqarash esa kelajak sari dadil qadam tashlashida kuch beradi. Demak, biz ota-onalar, ustozlar va ziyolilar – yoshlar tarbiyasida bu ikki tushunchani uyg'unlashtirishimiz lozim. Ertangi kunning taraqqiyoti ham ana shu uyg'unlikka bog'liq.

Oqila TO'RAQULOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

– Yigirmadan oshdim. Maktabni bitirganimdan beri darbadar, tog'ma-tog', qishloqma-qishloq, qochib-pusib yurib shu yerlarga kelib qoldim. Endi hatto erkim ham o'zimda emas. Nahotki, qorilikni o'rganish shunaqa bo'lsa.

Atrofga sinchkov qaragan Jamshid sokin, ammo qat'iy ovozdak:

– Bas qil, – dedi. – Bir yorilding, boshqa bunaqa gaplarni gapirma. Hech kinga. Hatto tushingda ham.

Rustam Jamshidning gaplaridan idroki yorishib, hislarini jilovladi.

– Bu yerga kelguncha qayerlarda bo'lding? – deb so'radi Jamshid.

– Bekobod tomonlardagi bir qishloqda uch oy bir hovlida o'qidim. Keyin bir tunda chegaradan yashirincha o'tkazib, Tojikistonga olib kirishdi. U yerda ham uch-to'rt oy bo'ldik. Tavildarada arablar qurol ishlatishni o'rgatdi. Keyin pasportlarimizni yoqib shu yerga olib kelishdi, – dedi Rustam.

– Muhoraba¹²da ham ishtirok etdingmi? – deb uning gapini bo'ldi Jamshid.

– Yo'q, – dedi qat'iy ohangda Rustam. – Ko'rib turibsiz-ku.

Jamshid kulimsiradi.

– Qayerdan ko'raman, men senga e'tibor qaratganimga ko'p bo'lgani yo'q. O'zing haqingda ochiqroq gapirib bering.

Rustam unga xavotir bilan tikildi. “Nega bunalik surishtirayapti?”, deb o'yladi. “Ishqilib, Ziyo akaga ishonib, bunga gapirgan gapim boshimga balo bo'lmamikan?”.

Rustam shu o'ylar bilan indamay, Jamshidga javob qilmay o'rnidan turdi. Uning yelkalaridan sovuq o'tgandi. Isinib olish uchun gulxanga orqa o'girdi. Jamshid uni boshqa gapirmasa kerak degan o'yda o'rnidan qo'zg'alganda, Rustam tilga kirdi. Jamshidga qaragani ham yo'q. Shunchaki, o'ziga gapirganday, gap boshladi: – Onam imom bo'lishimni orzu qilardi...

Jamshid ham gulxanga orqa o'girib, tek turib qoldi.

– O'sha kuni uyda Qur'on tilovat qilib o'tirgan edim. Quvonchdan terisiga sig'may, onam kirib keldi. Tilovatni tugallashimni ham kutmay, shodon ovozda “Ilming ziyoda bo'lsin, o'g'lim. Xushxabar bor, xushxabar”, dedi.

Xushxabari shuki, meni hujraga jo'natishga dadamni ko'ndirgan ekan.

– Rostdanmi? – dedim.

– Ha, bolam... Endi, eng ilmi imom bo'lasan. Bobongning ham ruhi shod bo'ladi. Meni esa, imomning onasi deyi-shadi, deb yig'lab yubordi.

Hujra qayerda ekanligini dadamdan ham, onamdan ham bilolmadim. Erta-indin bir kishi kelib o'zi olib ketadi. Qurbon jo'rang ham sen bilan birga boradi, deyishdi ular. O'sha-o'sha chiqib ketganimiz.

Rustam boshqa gapirmadi. Zimistonga qarab turaverdi. Jamshid uning yelkasiga qo'lini qo'ydi.

– Bunaqa chiqib ketganlar ko'p, bundan keyin bugungidek ahmoq bo'lma. Sal qolsa Qurbon bilan qo'shmozor bo'larding. Sovuq aql kerak. Ertaga nima bo'lishidan qat'i nazar, itoat qil. Tushundingmi?

Rustam unsiz bosh irg'adi.

– Qurbonga nima bo'lgan edi, o'zi? – deb so'radi so'ngra.

– U mujohid edi, – deb javob qildi Jamshid. – Ashaddiy desayam bo'ladi. Uning bir qadrtoni bor edi. Qo'shiqchi bo'lgan ekan avval. Bu yerda qo'shiq eshitishmaydi. Gohida qo'mondonning ko'zidan xoliroq joylarda yigitlarga xirgoyi qilib berar ekan. Amniyat aniqlabdi. Qo'shiq aytib turgan joyida otib tashlashdi. Shundan keyin Qurbon o'zgarib qoldi. Oxiri aldanganini ham anglagach, qochishga harakat qilganda qo'lga tushdi. Qolganini o'zing bilasan. Bo'пти, mendan sovuq o'tdi. Ketdim. Senam ichkariga kir.

Ular ikki tomonga yo'l olishdi...

O'sha tunda Rustam uxladimi, xayol surdimi bilolmadi. Saida bilan so'nggi uchrashuvi ko'z oldidan o'taverdi...

Mana, ular maktabdagi so'nggi

ADOQSIZ YO'L



qo'ng'iroqdan so'ng birga uyga qaytishmoqda.

– Qishlog'imizda chet tili o'qituvchisi bo'lmagani uchun, ingliz tili o'qituvchisi bo'laman, derdingiz. Bugun sinfdoshlarimiz boshqacha gapirishdi. Hayron qoldim, – deydi unga Saida araz aralash nozlanib.

– Bobom onamga, bolangni imomlikka o'qitgin, deb vasiyat qilgan ekan. Onamning ra'yiga qarshi bormadim, – deydi xijolat tortib Rustam. – Qorilikni tugallab kelib, baribir universitetga kiranman, ko'rasan hali.

– Qurbon ham ketarkanmi? – deydi Saida.

– Ha, ikkalamiz, – deydi Rustam.

Saida jim qoladi.

– O'qish nechchi yil ekan? – deb so'raydi so'ngra.

– O'zim ham bilmayman, – deydi Rustam. – Onam bu ilmning adog'i yo'q. Bobong Mir Arab madrasasida yetti yil o'qigan ekan, deydi-ku.

Saida nimalamidir o'ylab xo'rsinadi. Rustamga tikilib-tikilib qarab oladi. Bundan Rustam o'ng'aysizlanadi. Buni sezib Saidaning ham yuziga qizil yuguradi. Birpas jimgina ketishgach:

– Omadingizni bersin, ko'rishguncha salomat bo'ling, – deydi Saida.

Ular to'xtab, yo'l yoqalab eshakda kelayotgan Xoldor boboni hayron qoldirib, bir-biriga so'zsiz termulib qolishadi.

– Arvohurgur ahmoqlar, – deydi Xoldor bobo ularning yoniga kelib. Saida duv qizarib, “voy o'lay”, degan-cha uyi tomonga qarab chopadi.

– Rahmat. Senga ham omad tilayman. Xayr! – deb uning ortidan baqirgan

Rustam birdan bu qadar dadillik o'ziga qayerdan kelganiga hayron bo'lib, atrofga alanglaydi, nariroqda to'ng'illab ketayotgan Xoldor boboga ko'zi tushib “Assalomu alaykum, Xoldor bobo”, deydi dovdirab. Lekin bobo uning salomiga alik olmaydi, indamay ketadi, vas-salom.

Rustam o'z yo'lida davom etishga chog'langanda, uyiga yetib qolgan Saida to'xtab, unga birpas qarab turgach, ortiga qaytadi. Rustam ham unga peshvoz yuradi. Ammo bir-birlariga o'n-o'n besh metr masofa qolganda to'xtashadi. Ko'zlar to'qnashadi, Saidaning kulib turgan yuzi jiddiylashadi.

Uyalib ko'zlarini olib qochadi.

– Gapingiz bo'lmasa, men uyga kiranman, – deydi u.

– Yaxshi qol, Saida, – deydi Rustam ovozi qaltirab.

Saida ketadi. Rustam uning ortidan bir muddat qarab turgach, yuragi

duk-duk urgancha yo'lga tushadi. Birov ko'rib qolmasin, degan xavotirda uyi darvozasidan biqinib Saida qaraydi. Rustamning ortidan qarab qoladi. Rustam har safar ortiga o'girilganda u yashirinib olaveradi. Qilig'idan zavqlanib qiqirlaydi. Ortida onasi kuzatib turganini payqamaydi...

Rustam bu voqeani o'z tasavvurida jonlantirib, uyqu va charchoq aralash shirin jilmaydi. Keyin esa, o'zini kuzatib qolgan ota-onasini eslab ketdi.

Uni olib ketishga eski “Volga” mashinasida uzun, betartib soqol qo'ygan, arablarga o'xshab oppoq kiyingan, barvasta kishi keldi. Qurbonni uyidan allaqachon olgan ekan. Otasi uni uyiga taklif etganda, shoshilayotganini aytib rad qildi. Kun botguncha manzilga yetib olish zarurligini aytib, Rustamni tezroq olib chiqishni so'radi.

Shundan so'ng ortiqcha iltifot, manziratni bas qilib, otasi Rustamni chaqirdi. O'g'li bilan xayrlashar ekan, qo'lidagi “Qo'mondonlar soati”ni uning bilagiga taqib qo'yib, qulog'iga shivirladi:

– Bu soat Afg'onistondagi harbiy xizmatimdan esdalik. Hozirgacha men-ga yo'ldosh bo'ldi. Endi sening yo'ldoshing bo'lsin.

Xayrlashuv ma'nosida qo'l ko'tarib qolgan otasini mashina oynasidan kuzatib ketayotgan Rustam, ulardan uzoqlashgach, onasining darvozadan yugurib chiqqanini, dadasiga qo'shilib qo'l silkitganini ko'rdi. Nomahram kishidan tortinib, onasi u bilan hovlida xayrlashgan edi.

– O'sha kuni ota-onam meni ilm o'chog'iga yuborayapmiz, deb xursand bo'lgandi. Ayniqsa, onam sho'rlik, – deb shivirladi Rustam. – Aslida balo o'chog'iga jo'natishganini ular qayerdan bilishsin...

Kimdir turti. Rustam ko'zlarini zo'rg'a ochdi, Jamshid ekan. “Jim” ma'nosida barmog'ini labiga bosdi. So'ng boshi bilan “chiq” deganday ishora qilib, tashqariga chiqib ketdi. Rustam biroz hayallab tashqariga chiqqach, muaskar hududini ko'zdan kechirdi. Payraxalar ko'rinmadi.

“Sovuqligi uchun biror joyda to'planib, gulxan yoqib o'tirgan bo'lsa kerak”, deb o'ylagan Rustam nariroqda turgan “Jip” mashinalari tomon yurdi. Jamshid o'zi minib yuradigan “Jip”ning ichida ekan.

– Senga yordam qilaman. Faqat Tojikistondagi saboqlaring haqida gapirib ber, – dedi Jamshid u mashinaga chiqqach.

– Xo'jand atrofidagi qishloqlardan birida o'qidik, – dedi Rustam.

– Nomi nima o'sha qishloqning? – deb so'radi Jamshid.

Rustam buni bilmas edi, negaki, ular qayerga borishsa ham mahalliy aholi bilan muloqot qilishmagan, aniqrog'i, ustozlar bunga yo'l qo'yishmagan, hujralardan-hujralarga ularni yopiq mashinalarda olib o'tishgan.

– Qishloqning nomini bilmayman. Bolalar Xo'jandga yaqinligini taxmin qilishgan, – dedi Rustam. – Ustozlar ham tez-tez almashtirilardi. Dastlab mazhab yo'q, degan gapga ishontirishdi. Bemazhab bo'ldik. Keyin ota-ona, qarindosh-urug'ning hech kimmasligini qulog'imizga quyishdi. Butun yer yuzi bizning vatanimiz, kofirlardan uni tortib olishimiz kerak, degan gap qulog'imizga quyilib, tushimizda ham aks-sado berib boshlagach, Tavildaraga jo'nadik. U yoqda to'rt oy tayyorgarlik bo'ldi. Keyin vertolyotda bu yoqqa keldik.

– Tanish hikoya, – dedi Jamshid baralla kulib. – Hammangniki bir-biriga o'xshash. Endi bu yerdan qanday qutulish yo'lini o'ylash kerak.

Rustam xavotirlanib atrofga alangladi.

– Iloji bormikan? – dedi shivirlab.

– Bemalol gapiraver, – dedi unga javoban Jamshid. – Hammasi dong qotib uxlab yotibdi. O'limdan boshqa hamma narsaning iloji bor...

– Qanday? – dedi Rustam battar shivirlab.

– Qochish, – dedi Jamshid.

– Tutib olishsa otib tashlashadi, – dedi Rustam hafsalasi pir bo'lib.

– Qochmasang aniq o'lasan, undan ko'ra, urinib ko'rish kerak, – dedi Jamshid. – Alloh tavakkal qilganlarni yaxshi ko'radi. Tavakkal qilamiz. Aytgancha, doktor Ziyo hamqishlog'ing ekan. U haqida nimalarni bilasan?

– U kishi vahobiy edi, qishloqdan chiqib ketgan. Vatanda qidiruvda, – deb javob qildi Rustam.

Jamshid biroz o'ylandi.

– Hmm, juda sirli odam u, – dedi keyin. – Uning ham harakatdan hafsalasi pir bo'lgan. Yorilgani yo'g'u, lekin avzoyidan sezilayapti.

(Davomi keyingi sonda.)

Abdulhamid MUXTOROV

¹² Muhoraba – jang.



Saidova Kamola Uskanbayevnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogika ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo’yicha “Sharq va G’arb pedagogikasiga komparativistik yondashuv kontekstida yoshlarni tarbiyalashning mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 15-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko’chasi, 6-uy.
Tel/faks: (55) 511-02-69, 511-02-69; e-mail: uzpfitil@umail.uz, uzpfiti@exat.uz

Turayev Akramjon Ikromjonovichning 05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari ixtisosligi bo’yicha “Taqsimlangan generatsiya manbalari asosida zamonaviy elektr tarmoqlarini shakllantirish muammolari va yechimlari” mavzusidagi(texnika fanlari bo’yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2021.T.143.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 21-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100125, Toshkent shahri, Mirzo Ulug’bek tumani,
Do’rmon yo’li ko’chasi, 40-uy.
Tel/faks: (55) 520-01-52; e-mail: energetika_in@umail.uz

Sattarov Kamoliddin Fazliddin o’g’lining 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(pedagogika fanlari) ixtisosligi bo’yicha “Bo’lajak tarix o’qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy va kreativ o’quv topshiriqlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish(“O’zbekiston tarixi” fani misolida)” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Namangan davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 8-noyabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 160107, Namangan shahri, Uychi ko’chasi, 316-uy.
Tel/faks: (69) 211-11-69;
veb-sayt: www.namspi.uz; e-mail: info@namspi.uz; namdpi@exat.uz

Kadirova Durdona Dilshadovnaning 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo’yicha “Margaret Etvud ijodida distopiya janri an’analari” mavzusidagi(filologiya fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 18-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,
Kichik halqa yo’li ko’chasi, 21-“a” uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Kuralova Ra’no Mirzaaliyevnaning 03.00.04 – Mikrobiologiya va virusologiya hamda 03.00.10 – Ekologiya(biologiya fanlari) ixtisosliklari bo’yicha “Shirinmiya Glycyrrhiza glabra L. o’stirish orqali sho’rlangan tuproqlar mikroflorasini yaxshilash” mavzusidagi(biologiya fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.B.82.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 19-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko’chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Karimova Maftuna Nurdinovnaning 08.00.04 – Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti hamda 08.00.11 – Marketing ixtisosliklari bo’yicha “Brendni shakllantirish asosida meva mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish” mavzusidagi(iqtisodiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Xalqaro qishloq xo’jaligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/15.12.2022.I.155.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 15-noyabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko’chasi, 2-uy.
Tel/faks: (88) 801-36-00; e-mail: scientific_council@iau.uz

Kiryakov Dmitriy Andreyevichning 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya hamda 14.00.14 – Onkologiya ixtisosliklari bo’yicha “Saraton va prekanseroz teri kasalliklarining klinik ua immunologik xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent tibbiyot universiteti(Toshkent pediatriya tibbiyot instituti) huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 22-noyabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Bog’ishamol ko’chasi, 123-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Namozova Maftuna Shokir qizining 09.00.08 – Ma’naviy tarbiya ixtisosligi bo’yicha “Yangi O’zbekistonda radikal g’oyalarning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri va uning oldini olish choralari” mavzusidagi(falsafa fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/08.05.2024.F.135/01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 21-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko’chasi, 9-uy.
Tel/faks: (55) 503-41-90; e-mail: imtiuz@umail.uz

Nematova Maloxat Abdurasulovnaning 03.00.12 – Biotexnologiya ixtisosligi bo’yicha “Ko’histon kovragi(Ferula kuhistanica Korovin) o’simligining rizosferasi va uning biotexnologik potentsiali” mavzusidagi(biologiya fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.B.72.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 26-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 200114, Buxoro shahri, M. Iqbol ko’chasi, 11-uy.
Tel/faks: (65) 221-29-14; e-mail: info@buxdu.uz

Ibragimova Nodira Shuxratjonovnaning 09.00.07 – Ma’naviyat tarixi va nazariyasi ixtisosligi bo’yicha “Urush mavzusidagi romanlarda shaxs ma’naviyati shakllanishi jarayonining falsafiy talqini(Nobel mukofoti sovrindorlari ijodi misolida)” mavzusidagi(falsafa fanlari boyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/08.05.2024.F.135/01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 21-noyabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko’chasi, 9-uy.
Tel/faks: (55) 503-41-90; e-mail: imtiuz@umail.uz

Sadikova Surayyo Zakirovnaning 06.01.09 – O’simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo’yicha “Achchiq qalampirning(Capsicum annuum L.) zamburug’li kasalliklari va ularga qarshi kimyoviy kurash choralarini ishlab chiqish(Qoraqalpog’iston Respublikasi, Toshkent, Farg’ona va Qashqadaryo viloyatlari sharoitida)” mavzusidagi(qishloq xo’jaligi fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyaning himoyasi Paxta seleksiyasi, urug’chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 21-noyabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salar shaharhasi,
Botanika MFY, PSUYAITI ko’chasi.
Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; www.psuyaiti.uz, e-mail: paxtauz@mail.ru

Kunnazarov Ubbiniyaz Baktibayevichning 06.01.02 – Melioratsiya va sug’orma dehqonchilik ixtisosligi bo’yicha “Janubiy Orol bo’yida asosiy va takroriy ekin sifatida ekilgan makkajo’xori duragaylarining sug’orish tartibini ishlab chiqish” mavzusidagi(qishloq xo’jaligi fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug’chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 21-noyabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salar shaharchasi,
Botanika MFY, PSUYAITI ko’chasi.
Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; www.psuyaiti.uz, e-mail: paxtauz@mail.ru

Majidov Temur Xamidovichning 14.00.35 – Bolalar xirurgiyasi ixtisosligi bo’yicha “Bolalarda Payr sindromida tashxislash va davolash uslubini tanlash” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Bolalar milliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/01.02.2022.Tib.147.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 13-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100171, Toshkent shahri, Yashnobod tumani,
Parkent ko’chasi, 294-uy, 4-qavat.
Tel/faks: (55) 503-00-03, (77) 024-00-03; e-mail: info@bmtm.uz

Ashurova Nigina Alimdjanovnaning 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(ingliz tili) ixtisosligi bo’yicha “Ingliz tilida yangi avlod darslik va o’quv qo’llanmalarini yaratish mexanizmlari” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 21-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,
Kichik halqa yo’li ko’chasi, 21- “a” uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Ortikova Manzura Davranbekovnaning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg’ulotlari, sog’lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo’yicha “Yosh badiiy gimnastikachi qizlarning tayyorgarlik davrida cho’qmor bilan bajaradigan mashqlarda texnik mahoratni takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 21-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko’chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: info@jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz

Raximova Zulfiya Allayarovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo’yicha “Reproduktiv yoshdagi ayollarda adenomioz rivojlanishining klinik-patogenetik asoslari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 22-noyabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog’ishamol ko’chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: mail@tashpmi.uz

Mamatxojayeva Dilfuza Xamidullo qizining 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg’ulotlari, sog’lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo’yicha “O’quv mashq bosqichida sambochi qizlarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 21-noyabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko’chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: info@jtsu.uz; e-xat:jtsu@exat.uz

Inoyatova Nodira Miranvarovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo’yicha “Tug’ruq vaqtida patologik qon yo’qotgan ayollarning reproduktiv funksiyasi shakllanishidagi patogenetik mexanizmlari” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi DSc.04/30.11.2023. Tib.114.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 28-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100124, Toshkent shahar, Mirzo Ulug’bek ko’chasi, 132-“a” uy.
Tel/faks: (71) 263-78-18; e-mail: info@uzaig.uz



Marifat

Marifat

Узбекистон

УЗБЕКИСТАНА

gazetalari hamisha siz bilan birga

OBUNA INDEKSI

Imtiyozli
149

Imtiyozli, arzonlashtirilgan
narxda obuna uchun
to'liq bir yilga
obuna bo'lishingiz kerak bo'ladi.

Imtiyozli
216
150

1 yildan kam muddatga ham
(3 oy, 6 oy) obuna
bo'lishingiz mumkin.

217

**“Ma'rifat” gazetasi barcha sonlari
telefoningizda bo'lishini istaysizmi?**

“Ma'rifat” ilovasi aynan siz uchun!

Mobil ilovani yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni skanerlang:



2026-yil uchun obuna boshlandi!


facebook.com/marifat.uz

t.me/marifatziyo

www.marifat.uz

(71) 212-01-50
212-01-51
(99) 040-00-76

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-6039. Tiraji-6818.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (71) 212-01-50



“Ma'rifat” dan
materiallarni ko'chirib bosish
tahririyat ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar
taqiriz qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Gazetaning saytiga o'tish uchun
ushbu QR-kodni skanerlang:

Ⓣ – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Web-site: www.marifat.uz

“O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida
chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher
Navoiy ko'chasi, 30-uy.

